

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UDK

Qo‘lyozma huquqida

MAGISTRATURA BO‘LIMI
O‘ZBEK ADABIYOTII KAFEDRASI

BERDIBAYEV ULUG‘BEK
«QORAQALPOG‘ISTONDAGI O‘ZBEK IJODKORLARI
ASARLARINING O‘ZIGA XOSLIGI»

Mutaxassislik: 5A111201 - o‘zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Davlat attestatsiya komissiyasida
himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

Kafedra mudiri:

Ilmiy rahbar:

dots. B. Atashev

f.f.n. S.Matyakupov

prof. K.Qurambayev

NUKUS 2015

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1 bob. She'riyatda vatan va tabiat mavzusi talqini.....	9
1.1. Shoiralar lirikasida vatan obrazi.....	9
1.2. Tabiat tasviri she'riyatining yetakchi mavzusi.....	21
1.3. Dostonlarda mavzu rang-barangligi va poetik mahorat.....	30
2 bob. She'riyatga yo'g'rilgan publitsistika.....	43
2.1. Hayot haqiqati va publitsistik mahorat.....	43
2.2. Publitsistikada xalqaro hayot mavzusi talqini.....	54
3 bob. Ijodkor individualligi va mavzu talqinidagi o'ziga xoslik.....	60
3.1. G.Rahimova va N.Matyakubova she'riyatining ba'diy xususiyatlari.....	60
3.2. Y.Qo'chqorov ijodiga doir ba'zi kuzatishlar.....	67
Xulosa.....	80
Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.....	83
Ilova (mavzuni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar)	

KIRISH

Dissertatsiya mavzuning asoslanishi va dolzarbligi: Ushbu magistrlik dissertatsiyamizning mavzusi milliy adabiyotlarning o'zaro aloqalari va bir-birlariga ta'siri yo'nalishida bo'lib, bu mavzu bo'yicha o'zbek va qoraqalpoq adabiyotshunosligida bir necha ilmiy tadqiqotlar, maqolalar, xatto kitoblar ham nashr etilgani ma'lum. Adabiy aloqalar mavzusi adabiy jarayon taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham adabiyotshunoslikning kun tartibida turgan, eng dolzarb, o'rganilishi zarur bo'lgan masalalardan biridir.

Ayniqsa, Markaziy Osiyoda yonma-yon yashab kelayotgan, tarixi, tili, urf-odatleri, folklori bir-biriga juda yaqin o'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq adabiyotlari va madaniyatlarining hamkorligini o'rganish, ularning bir-birlarining tajribalaridan foydalanish jarayonlarini tadqiq etish juda dolzarb masalalardan biridir. Jumladan, o'zbek va qoraqalpoq adabiyotlari o'rtasidagi aloqalarni o'rganish hech qachon dolzarblik xususiyatini yo'qatgan emas.

Tarixdan bilamizki, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi hamkorlik uzoq asrlarga borib taqaladi. Ular ijtimoiy-siyosiy hayotda ham, iqtisodiy jabhada ham, adabiy-madaniy sohalarda ham doimo bir-birlariga yelkadosh bo'lib kelayotgan birodar xalqlardir. Ular hayotning qaysi sohasida biror yutuqqa erishmagan bo'lsin, albatta, ularning negizida bu xalqlar o'rtasidagi do'stlik munosabatlari yetakchilik qiladi.

Ma'lumki, Qoraqalpog'istonda qoraqalpoqlar bilan birga o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar va boshqa xalqlar do'st birodarlikda yashab kelyapti. Ularning adabiyotlari va madaniyatlari o'rtasida ham xuddi shunday jarayon davom etmoqda. Qoraqalpog'istonda yashab o'zbek, qozoq, turkman tilida ijod qiladigan ijodkorlar bor. Ular o'z ona tillarida yozadilar, kitoblar nashr ettirish imkoniyatiga ham ega. Ular uchun gazetalar chop etiladi. Xususan, o'zbek tilida qalam tebratadigan shoir va yozuvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'zbek tilida gazetalar bor, o'zbek tilida kitob nashr etish uchun sharoitlar mavjud. Bularning barchasi Qoraqalpog'istonda yashab o'zbek tilida qalam tebratishning yaxshi imkoniyatlaridir.

Qoraqalpog‘istonda yashab o‘zbek tilida yozadigan shoir va yozuvchilar qoraqalpoq adabiyotining bir tarmog‘i ijodkorlari sanaladi. Yani qoraqalpoq adabiyoti tarkibida o‘zbek tilida yozadigan ijodkorlar bor va ular katta bir guruhni tashkil etadi. G.Matyobubova, G.Rahimova, Y.Qo‘chqorov, A.Oqnazarov, N.Matyakubova, Q.Shaniyazov, Q.Yunusova, M.Yusupova, Z.Nurmatova, Z.Yangibayeva, U.Nurillayeva va boshqalar. Bu ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin. Biz tilga olgan ijodkorlar yozuvchilar uyushmasining rasman a‘zoliciga qabul qilingan a‘zolik guvohnomasiga ega bo‘lganlar. Biroq yozuvchilik guvohnomasiga ega bo‘lmasa-da tumanlarda o‘zbek tilida qalam tebratib kelayotgan qanchadan qancha ijodkorlar bor. Agar ularning barchasi bir ro‘yxatga kiritilsa, ijodiy maxsulotlari bir joyga to‘plansa qancha bo‘lishini tasavvur qilsa bo‘ladi.

Demak, Qoraqalpog‘istonda yashab, o‘zbek tilida qalam tebratib kelayotgan shoir va yozuvchilarning katta bir guruhi bor ekan, ular ijodini o‘rganish masalasi adabiyotshunoslikning kun tartibiga chiqadi. Lekin hozirga qadar bu ijodkorlarning ba‘zilari ijodi yuzasidan ayrim tadqiqot ishlari, maqolalar yoki kitoblarga taqrizlar yozilgan bo‘lsada, ular alohida dissertatsiyaga taxlil obyekti bo‘lgan emas. To‘g‘ri yuqorida tilga olingan hamma ijodkorlarning asarlari bir xil badiiy saviyada, yaxshi yozilgan deb bo‘lmaydi. Ular orasida hali qalami shakillanib ulgurmagan, asarlari faqat Qoraqalpog‘iston yoki o‘z hududidan tashqariga chiqa olmaganlari ham oz emas. Shu bilan birga ijodi faqat Qoraqalpog‘istondagina emas, O‘zbekiston ko‘lamida ham tanilgan, asarlari markaziy nashryotlarda bosilib kelayotgan, o‘quvchilar nazariga tushib muxlislar orttirgan, hatto adabiy jamoatchilik, mutaxassislarning ijobiy bahosiga ham munosib bo‘lgan ijodkorlar ham bor. G.Matyobubova, A.Oqnazarov, Y.Qo‘chqorov, N.Matyobubova, G.Rahimova kabi ijodkorlar shular jumlasidandir.

Tilga olingan yuqoridagi shoirlar va yozuvchilarning ijodi haqida o‘zbek adabiyotshunosligida diqqatga sazovor fikrlar aytilgan, ularga ijobiy baho berilgan. Xatto qoraqalpoq adabiyotshunosligi ham tilga olingan ayrim shoirlar haqida matbuotda maqolalar bilan chiqdi. Biz bu o‘rinda B.Nazarov, J.Bozorboyev,

N.Xudaybergenov, P.Shermuhamedov, S.Baxadirova, Q.Maqsedov, K.Qurambaev, Q.O‘razimbetov va boshqa o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotshunoslarining matbuotda, boshqa-da ilmiy-adabiy manbalardagi chiqishlarini, maqolalarini nazarda tutmoqdamiz. Biroq bu ishlarda tilga olingan shoirlar ijodi umumiy yo‘nalishda o‘rganilgan yoki biror kitobning chop etilishi munosabati bilan taqriz shaklida yozilgan ishlardan iboratdir. Aslida bu mavzuni har tamonlama o‘rganish, Qoraqalpog‘istonda yashab o‘zbek tilida qalam tebratib kelayotgan ijodkorlarning asarlarini ularning o‘ziga xosligini o‘rganish hamon olimlarimiz nazaridan chetda qolib kelmoqda. Shu bo‘shliqni birmuncha to‘ldirish maqsadida mazkur mavzuni magistrlik dissertatsiyamizga mavzu qilib tanladik.

Yuqorida qayd etganimizdek, Qoraqalpog‘istonda yashab o‘zbek tilida qalam tebratib kelayotgan ijodkorlar ko‘p. Ularning barchasining ijodini bir magistrlik dissertatsiyaga sig‘dirib taxlil qilish imkoniyati yo‘q. Shuning uchun biz bu masalada o‘zimizni nisbatan chegaralab ba‘zi shoirlar, aniqrog‘i, ijodi har ikki respublikada tan olingan, asarlari xalqimizga ma‘qul bo‘lgan ijodkorlarni tanladik. Bular: G.Matyoqubova, G.Rahimova, N.Matyoqubova, Y.Qo‘chqorovlardir. Ular adabiyotning turli janrlarida qalam tebratib kelyapti. She‘rlar, dastonlar, publitsistik maqolalar va boshqa janrlarda ijod qilishmoqda.

Magistrlik dissertatsiyamizning uch bobi va bir necha fasillarida tilga olingan ijodkorlarning o‘ziga xosligini, hayot materyalini ijodiy o‘zlashtirishdagi bir-biridan farqini ko‘rsatib berishga intilamiz. Bunday deyish bilan biz taxlilga tortilgan shoirlar ijodi xususida hamma gapni aytib beramiz, ular ijodining barcha qirralarini yoritamiz degan fikrni aytmoqchi emasmiz. Bizning mazkur dissertatsiyamiz ushbu temaga qo‘yilgan dastlabki qadam. Kelajakda u yanada kengroq doirada, yangi materiallar asosida rivojlantirilishiga, mavzuning ochilmagan qirralari navbatdagi tadqiqotlarda ochib berilishiga ishonamiz.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining tarixi qadimiy bo‘lganidek, ularning adabiyotlari o‘rtasidagi aloqalarning tarixi ham xuddi shunday. Qoraqalpog‘istonda o‘zbek va qoraqalpoq ham boshqa millat vakillari uzoq asrlardan beri yonma-yon, do‘st-birodar bo‘lib yashab kelmoqda. Ular nafaqat

ijtimoiy-iqtisodiy soxalarda, balki adabiyot va san'atda ham bir-birlari bilan hamkorlik qilib kelayapti. Bunday yaqinliklarni, hamkorliklarni o'rganish, tadqiq qilish nafaqat u yoki bu fan soxasining rivojlanishiga xizmat qiladi, ayni paytda bu mavzuning talqini xalqlar va adabiyotlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga ham xissa bo'lib qo'shiladi. Qoraqalpog'istonda yashab ijod qilib kelayotgan, o'zbek tilida asarlar yozib har ikki adabiyotga teng darajada xizmat qilib kelayotgan bir guruh ijodkorlar borki, ular asarlarini o'rganish, ularni targ'ib qilish ikki adabiyot hamkorligini mustahkamlaganidek, xalqlarimiz do'stligi taraqqiyotini ham taminlaydi. Shunday ekan, bu mavzu eng dolzarb, hech qachon ahamiyatini yo'qotmaydigan, adabiyotshunosligimizning doimo kun tartibida turgan mavzulardan biridir. Shuni nazarda tutib biz mazkur mavzuni dissertatsiyamizga obyekt qilib tanladik va uni imkon darajasida ilmiy aspektda yoritishga urinib ko'ramiz.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Mazkur tadqiqotimizda Qoraqalpog'istonda yashab o'zbek tilida asarlar yozib kelayotgan G.Matyoqubova, G.Rahimova, N.Matyoqubova, Y.Qo'chqorovlarning she'riy, nasriy, publitsistik asarlari, dostonlar, adabiy tanqidiy maqolalar manba bo'lib xizmat etadi.

Ishning maqsadi va vazifalari: Ushbu tadqiqotimizda quyidagi masalalarni yoritishni maqsad qilib oldik:

- Qoraqalpog'istonda yashab o'zbek tilida qalam tebratib kelayotgan bir guruh ijodkorlarning adabiy faoliyatiga, ijodiy yo'nalishining o'ziga xoslik xususiyatlariga to'xtash;
- G.Matyoqubovanning qoraqalpoq mavzusidagi ba'zi she'riyat namunalari, dostonlarining o'ziga xosligini taxlil qilish;
- G.Matyoqubova dostonlarining mavzu rang-barangli, badiiy mahoratini aniqlash va ijodi o'ziga xosligini belgilash;
- G.Matyoqubova publitsistikasining badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritish, qoraqalpoq mavzusidagi publitsistik maqolalari misolida milliy kolorit yaratish tajribasini umumlashtirish.
- G.Rahimovanning ijodiy o'ziga xosligini ochib berish;

- N.Matyoqubovning she'riyatidagi badiiy mahorat masalalarini ko'rsatish .
- Y.Qo'chqorovning shoirlik, publitsistik mahorati haqida so'z yuritish.

Ilmiy yangiligi: Ushbu mavzu o'zbek adabiyotshunosligida ham, qoraqalpog' adabiyotshunosligida ham xuddi shunday aspektida o'rganilgan emas. Qoraqalpog'istonda yashab o'zbek tilida ijod qilayotgan qalamkashlarning asarlari boshqa regionlardagi o'zbek adiblari asarlaridan jiddiy farq qiladi. Biz ishimizda ana shu yangilikni ko'rsatishga, yani qoraqalpog'istonlik o'zbek ijodkorlari asarlari boshqa regiondagi shoir va yozuvchilari asarlaridan qoraqalpog' koloritini berish jixatidan katta farq qiladi. Bu biz kelgan xulosa va yangilik shunda.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Qoraqalpog'istonda yashab o'zbek tilida ijod qilib kelayotgan shoir va yozuvchilar faqat biz tilga olgan ijodkordangina iborat emas. Ularning soni ko'p. Har biri o'ziga xos ijodiy uslubga ega ijodkorlar. Shunday ekan, kelajakda ularning ijodi ham alohida tadqiqot obyektiga aylanishini taklif qilgan bo'lardik. Umuman, bunday mavzularni o'rganish har ikki adabiyotshunoslik (qoraqalpog' va o'zbek) uchun qarz ham farz deb hisoblaymiz. Bu mavzu yanada kengroq doirada o'rganilsa, mavzuning ochilmagan qirralari yana ochilishi aniq. Bizning ushbu dissertatsiyamiz shu mavzuni o'rganishga qo'yilgan dastlabki qadamlardan biri va u kelajakda har tamonlama o'rganiladi degan umiddamiz.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: Mavzuning o'zi tadqiqot uslubining qiyosiy ospektda bo'lishini taqazo etadi. Tilga olingan shoir va yozuvchilarning asarlari o'zbek va boshqa adabiyotlar bilan qiyosiy taxlil qilinadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Mazkur tadqiqotimiz natijalaridan umumta'lim maktablari yoki oliy o'quv yurtlarida qardosh xalqlar adabiyoti, yoki dunyo adabiyotini o'rganishda foydalanish mumkin. Kimki adabiy aloqalar masalasi bilan shug'ullanmoqchi bo'lsa, shu ishning materyallaridan foydalanishi mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi: Dissertatsiyamiz kirish va «She'riyatda vatan va tabiat mavzusi talqini», «She'riyatga yo'g'rilgan publitsistika», «Ijodkor individualligi va mavzu talqinidagi o'ziga xoslik» deb nomlangan uch bob,

umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, 85 sahifani tashkil etadi.

I BOB

SHE'RIYATDA VATAN VA TABIAT MAVZUSI TALQINI

1.1. Shoira lirikasida vatan obrazi

Talantli o'zbek shoirasi G.Matyaqubovaning ijodidan, ayniqsa uning lirikasidan o'rin olgan vatan, yani kindik qonimiz to'kilgan ona-zamin serquyosh O'zbekistonimiz, qadimiy shahar Tortko'l, har bir millatning qo'sh qanotidan biri bo'lmish ona tabiat, uning go'zalliklari haqidagi fikrlar zarrada quyosh aks etgani kabi uning she'riyatining har bir misrasida o'z inikosini topgan. Ha, «Vatan» so'zi ulug' so'zdir. Vatan haqida har kim har xil fikrlasada, lekin barcha mulohazalar mohiyatida muhabbat yotadi. Sidqiy Xondaymiqiy ham quyidagicha yozgan:

Vatan nadir – turon yerim, tuqqan yerim,

Suyib - qo'yib, o'ynab – kulib yurgan yerim.

Vatan!... Bu so'zning ma'nosi shu qadar keng, shu qadar chuqurki, haligacha biror kimsa vatan ta'rifini to'la aytib berolgan emas. Vatan – onadir! Shu sababli ham biz ona – vatan deymiz.

«Vatan... bu so'z also mavhum-majhul tushuncha emas. Aslo! Aksincha, vatan xuddi hayot, ona, muhabbat, zurriyod tushunchalari yanglig' hamma-hamma quvonchni, hamma-hamma qayg'uni o'ziga qamrab oladi. Vatan bu Hamma-hamma narsa: Tog', daryo, o'rmon, dasht, cho'l, tabiat... u ko'z ochib ko'rgan dunyomiz, bizni o'rab turgan borliq... u ota-onamiz, aka-ukamiz, opa-singillarimiz, urug'-aymoq, el-xalqimiz, millatimiz... u so'ngi borar qo'yimgohimiz... maxallasi, vatan-bu o'ziga hamma-hamma narsani daf'atan qamrab oluvchi muqaddas so'z, ulug' xazina»¹ bizga ma'lumki dunyoda mo'jizalar ko'p. Yaxshi yozilgan she'rni ham mo'jiza deyish mumkin, chunki, u xuddi sening ham ko'nglingda kechayotgan his-tuyg'ularni, yoki sening holatingni tasvirlayotgandek bo'ladi. «Joziba va sehr bilan paydo bo'lgan she'r umrboqiydir. U qalblardan qalblarga, tillardan dillarga ko'chadi. She'riyat muxlislariga zavq-shavq bag'ishlaydi. Mahorat mevasi sifatida tug'ilgan she'r zukko kitobxonni izidan ergashtiradi.

¹ M.Axmad. "Muqaddas qayg'u", "Amu tongi" 20-may, 1994-y

O'zidagi sokinlik o'ychanlik, junbush, tabassum vazminlik kayfiyatini unga yuqtiradi.²

Shoira G.Matyaqubova she'rlarini o'qiganimizda shoira ruhiy dunyosi iztiroblari, quvonchi, umidlari va armonlariga chin ko'ngildan ishonasiz. Hammasi rost ekan, deysiz. Qayg'usiga ham, quvonchiga ham she'rik bo'lasiz. Ayniqsa, uning jannatdan ham a'lo «Vatan» haqidagi misralari har bir inson qalbining aksadosidir. Ular yuragidan taralayotgan mayin bir kuydir.

Bepayon dala, bulutlarga tutash tog', moviy dengiz, gullab yashnayotgan zaminu beg'ubor osmon... xullas jamiki borliq go'zallik-bu vatandir. Kindik qonimiz to'kilgan ona yurtidir. «Vatanni suymoq iymondandir» deyiladi xadislarda. Har bir inson uchun tuprog'ida oltin gullagan, bog'larida bol unadigan, dovrug'i olamga doston vatanidan azizroq narsa yo'q. Bunday vatanning farzandi bo'lish baxt, faxrlanish esa sharafdir.

Darhaqiqat, qaysi bir insonda o'z vatani bilan faxrlanish hissi yo'q? Qaysi bir xonanda o'z qo'shiqlarida vatanini yonib kuylamagan? Qaysi bir shoir o'z vatani haqida she'r yozmagan? «Qaysi bir kitobxon oybekning «Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi» deb boshlanadigan «O'zbekiston» she'rini zavq bilan qayta-qayta o'qimaydi deysiz? Qaysi bir kitobxon H. Olimjonning «Baxtlar vodiysi» she'rini o'qib zavqlanmagan deysiz?

Shoir A. Oripov «O'zbekiston» she'rida yozadi.

«Shoirlar bor o'z yurtim butun

Olam aro atagan tanho»

Ha, haqiqatdan ham hech bir shoir, yozuvchi yo'qki, o'z yurtini, elini iftixor va g'urur bilan tilga olmagan bo'lsin. Shular qatorida G. Matyaqubova ham o'z yurtini zo'r mehr-muhabbat bilan tilga oladi. Bu mehr-muhabbat. Dil gaplari she'riy satrlari bo'lib, shoira yuragida bir buloqdan toshadi va oppoq qog'oz uzra taraladi.

Mayli xar kim o'z yurtini maqtasin.

² R.Raxidov, M.Xoshimova. She'riyat shoir yuragi

Dildan

Mayli burgut ko‘zlab uhsin baland cho‘qqini.
Bolarilar qo‘naversin bir gulga-guldan,
Mayli bulbul har chamanga aytsin shavqini
Menga esa zavq beradi birgina noming
Azizdursan, to‘rt gul, mayli to‘rt gul bo‘lsang ham.
Istiqlolning shoni bilan yuksalgan noming,
Ertalarga boshlar bizni baxtli va hamdam.

«Bobolarim o‘tgan zaminda

tug‘ilganim baxtli cho‘qqisi», -deb yozadi shoira F. Mirzaboeva ham. Ona yurtimiz unda tug‘ilganmiz. Yashayotganimiz, otayotgan oppoq tongiga shukronalar aytayotganimiz xalqimiz baxtining cho‘qqisi. «Har kimning o‘z yurti kaba qal’asi», deydi Guliston Matyaqubova . U o‘z yurtini, vatanini buyuk shaharlar Parij, Londonday mashhur bo‘lmasa ham, uning o‘ziga xos o‘rni bor, deydi. Har bir kuni men uchun shondir» deb o‘zgacha bir mehr-muhabbat bilan sevadi. She’rlarida yonib-yonib kuylaydi.

Zarpechkalar quchib yotgan baland tog‘ing yo‘q,
Qumlar bilan olishasan ming yildan buyon.
Salqinlarda rohat qilib yotgan chog‘ing yo‘q,
Daraxt ekib umring o‘tar Qoraqalpog‘iston.
Mayli mashhur bo‘lmasang ham London, Parijday,
Ertalaring har bir kuni men uchun shondir.
O‘z o‘rning bor O‘zbekiston xaritasida,
O‘zbekiston esa menga butun jahondir.

«Yurtimiz qadim-qadimdanoq sharqning ma’naviyat beshigi bo‘lganligini Jayxun va Sayxun oralig‘idagi aqlni lol qoldiradigan obidalarimiz, davrlar to‘foni sinovidan o‘tgan qadriyatlarimiz, buyuk allomalarimiz yaratgan qomusiy kashfiyotlar to‘liq isbotlaydi. Tafakkurimizda Farobiylar donishmandligi, tomirimizda To‘maris va Amir Temur qoni, tuyg‘umizda Shiroq va Jaloliddin Manguberdi vatanparvarligi, ongizda Yassaviy va Naqshband ta’limoti mavj urib

turibdi. Ming yillar davomida avlodlardan-avlodlarga singib kelayotgan bu botiniy ma'naviyatni hech bir mustabid elimiz qalbdan yulib ololmadi. Ziyoni dud to'sa olmaganidek, zulmatlarni parchalab, vatanimiz uzra istiqlool quyoshi balqidi.³

Qadim qadimdan Turon zaminida tomir otgan, tarixning turli davrlarida har xil nomlar bilan atalib, jahon madaniyatiga munosib ulush qo'shgan yurtimizni mustaqil O'zbekiston bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda. Bundan ilhomlangan shoirlarimiz o'z ijod bo'stonlaridan she'riy guldastalar tayyorladilar. Shu jumladan G.Matyaqubova ham o'z ijodiga mustaqillik, mustaqil O'zbekiston mavzularini olib kirdi. Uning buyukligiga ishonch bilan qaraydi.

Ertang yorug' yurtim, olam sen bilan,
Ertangni yashnatar gul bahor ko'pdir.
Elsevar sarboning – har dam sen bilan,
O'g'il-qizing mangu hamdam sen bilan.
Guliston to hayot, xurram sen bilan,
Yurtim buyukliginga iqror ko'pdir.
Senga jonin tikkan fidokor ko'pdir!...

Prezidentimiz I.A.Karimov 1993-yil 6-may o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston oliy majlisining o'n ikkinchi sessiyasda shunday dedi: «Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat har qanday yovuz kuchni yengishga qodirdir. Endi ortga yo'l yo'q. O'zbekiston istiqbolini sobitqadamlik bilan barpo etmog'imiz zarur. Bu yo'lda ikkilanmoq, manfaatparastlikning mayda-chuyda tashvishlariga o'ralashmoq vatanga, xalqqa, kelajak avlodga xiyonat bo'ladi.

Vatan ko'nglingizda bo'lsa, alloh ishimizga hamisha madadkor bo'lgay! Ha, vatan ko'nglimizda bo'lishi. Shunda biz ishonch bilan aytamiz: Bizning mustaqil yurtimizning kelajagi buyukdir. Bu yurtida onalar, farzandlar, otalar suyuklidir. Shoir Muhammad Yusuf kuylagandek, bu yurtning «Beshiklari allasiga bo'lmaydi zor»

Gullar vodiysida umidlar o'sar,

³ Sodulla Hakim. "Vatanparvarlik, fidoiylilik zamoni keldi". "Marifat" davra suxbati. 1993 yil 29-dekabr.

Uylarning to'rlarini beshiklar bezar.

Oq tonglarni kutib shamollar esar,

Onalari suyuk O'zbekistonim,

Kelajagi buyuk O'zbekistonim.

Ishonch yuksaladi osmonlarida,

Kelajak yo'rgaki karvonlarida,

Buyuklik balqiydi to'rt enlarida

Farzandlari suyuk O'zbekistonim,

Kelajagi buyuk O'zbekistonim.

«Shoir – kayfiyat odami. Uning yon daftarida ne-ne anduhlar bitilgan satrlar bo'ladi. Ammo u hammasini ham xalqqa taqdim etavermaydi. She'r ko'ngillarga nur olib kirgani yaxshi. G'ashlik va najotsizlik tuyg'usini emas».

Shoira G.Matyaqubova ham «O'zbekiston», «Yaxshilik poklikdan jonga-jon kirs» kabi she'rlarida ko'ngillarga yaxshilik tuyg'ularini olib kiradi va bu she'riy guldastalarda O'zbekistonning kelajagining buyukligini takror va takror ta'kidlab o'tadi.

Ko'zlarda yongan nur muhabbatdir,

Yaxshi niyatlari yarim davlatdir

Ostonasi tilla xur mamlakatdir,

Otlari suyuk O'zbekistonim,

Kelajagi buyuk O'zbekistonim!

Sermahsul ijodkor G.Matyaqubova shunday yozadi: «Xalqimizning butun bir tarixi ko'z oldimizda o'zining oltin sahifalarini ochib tashlagan edi. Bu sahifalarda qadim qipchoq dashtlari, Spitamenning so'g'idlar taqdiri uchun kurashlari, To'marisning qonli nidolari, Amir Temurning zafarlari, qadim Xorazmning niliy gumbaz, naqshinkor minoralari, bobomiz Beruniyning oliy falsafasi, hamma-hammasini eslash, ko'z oldimizdan o'tkazishga esa fursat yetishmasdi. Yuragimda esa birin-ketin shunday satrlar dunyoga keldi.

Tarixlar qa'ridan kelar bir nido,

Odamzod yurtiga jon etar fido,

Tuprog'ing xazina, quyoshing hayot
To tog'lar bo'y tiklar, oqar amudaryo,
Massaget urpog'in tashlab kelgan yurt,
O'tmishin ertangi kunlarga bog'lab,
Avlodi erkini istab kelgan yurt.
Asrlar ruhida Berdaq nafasi,
Ernazar botirning erkda xavosi,
Mustaqillik yo'li tarix yo'lidir,
Do'stlikdir sindirgan qullik qafasin.
Baxtimiz yuksalar ikki sohilda,
Qordoshlik jon bo'lib yashar baxtingda,
Bu qadim cho'llarni tutashtiruvchi,
O'tovlar bo'y tiklar marmar taxtingda.
Massaget urpog'in tashlab kelgan yurt,
To'maris naslini asrab kelgan yurt,
Avlodi erkini istab kelgan yurt.⁴

G.Matyaqubovaning o'z yurtiga bo'lgan muhabbati cheksizdir. Bunga uning quyida qalb so'zlari guvohdir. «Mening ona yurtim, mening kindik qonim to'kilgan, tug'ilgan ota makonim! bag'ringda o'sgan har bir tong, Vujudingni kuydiruvchi sahrolar hammasi mening jonimdan kuch olganday, yo'q, mening jonim sendagi har bir cho'pdan kuch olganday! Tonglaringda esgan beg'ubor shamollar menga erkinlik qo'shig'ini aytadi. Ozodlik ruhini to'kadi! Qushlarning sahrolar tamondan eshitilgan chug'urlarida ajdodlarimiz ruhi tirilib bizga shivirlayotganday! Ularning mayin qanotlarida qadim bobolarning nafasi bizlarga kuch va jur'at, umid va qanoat urug'ini sochayotganday.⁵

G.Matyaqubovaning tug'ilgan yeri To'rtko'lga, uning muqaddas tuprog'iga, paxta dalalariga, Qadoq ko'l va mehnatkash paxtakorlarning jasoratiga bo'lgan mehr muhabbati «Aytgin menga To'rtko'l haqida» dostonida 1990-yil «Qoraqalpog'iston» nashryotida chop etilgan. Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston

⁴ G.Matyaqubova "Jayxun yoqasida o'sgan boyterak" Amu tonggi 1995-yil 1-aprel.

⁵ G.Matyaqubova "Jayxun yoqasida o'sgan boyterak" Amu tonggi 1995-yil 1-aprel.

davlat mukofotiga nomzod qilib ko'rsatilgan she'rlar to'plami – «Jurek penen juzbe juz» ga kirgan «Tug'ilgan yor», «Yurtim», «Uzoq yo'llar», «Aylana keng jaziq», «Solma bo'ylarida», «Yomg'ir yog'ar» kabi she'rlarida o'z inikosini topgan.

Farzand nomin oqlash uchun sinovlarga tayyorman,
Men chorlagan kunlar hali qaylardadir uzoqda...
Men o'ylayman quyosh chiqsa To'rtko'l yoqdan chiqdi deb,
Yomg'ir yog'sa yoyildi deb bulutlari To'rtko'ldan,
Tuman tushsa tumanlarday hayollarni boylayman,
Shamol essa keldi deyman sog'inganim eslayman

To'rtko'l qadimgi Xorazm vohasining ulkan madaniyat o'chog'ida paydo bo'lgan, qadimdan belgili el. Guliston shu elda tug'ilib o'sdi, voyaga yetdi. U o'z To'rtko'li bilan hamisha faxrlanib yuradi va faxr tuyg'ulari bir she'r bo'lib qaynoq va jo'shqin misralarda o'z aksini topgan.

Har kimning o'z uyi o'lan to'shagi,
Bu yurtni jannatdan a'lo deb bildim,
Onam tug'ar bo'lsa qaytadan,
Yana To'rtko'limda tug'ilar edim!

Shoira orzularini, mehrini qo'shib tuyg'ularidan bir gulchambar bog'laydi va ona yurti huzuriga keladi. Unga madhiyalar bitadi, to'rtko'lning qadimiy qal'alaridan biri bo'lgan Yonboshqal'ani shoh saroylar ila bahs boylashding, deb g'ururlanadi. Devorlaring asta-asta nurab ketsa ham salobatlisin. Tarixing bilan sen olamga yoymasang ham, keng xaritada noming bo'lmasa ham, «noming bilan oq dasturxonlar» deb bir zamonlar cho'l-u biyobon bo'lgan Yonboshqal'a bugungi kunda gullab yashnagan go'zal bir shaharga aylanganini aytadi.

«Biz yaratdik chamanlarda baxtli diyorni
Ro'yo bo'ldi bir lahzada ming yillik orzu»

Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan cho'l-u biyobonlar, sahrolar o'rnida, mehnatkash inson qo'li bilan go'zal shahar qad ko'tardi. Bu bilan

Gulistonning faxrlanish, maqtanish xissi, qalb soʻzlari uning qalamida oʻz ifodasini topdi:

Yoʻq sehrlar emas bizning mehnatkash qoʻllar,

Zahmati bosh egdirdi qadim yerlarni

Bugun magʻrur koʻz-koʻz qilar baxmal qirlarni

Shu qirlarda gul oʻstirding, oq, pushti, yashil.

Ranglarida jilolanar ertangi hayot

Qadim turon osmoniday bu ochiq koʻngil

Bagʻri saxiy bogʻlaridan oladi quvvat

Yurting baxtli boʻlib yashab turar gul

Tomirlarga quvvat berar mehr-muhabbat

«Vatan ... bu muqaddas tushuncha bugun yurtimiz mustaqilligi zamonida oʻz asliga qaytmoqda.

Bugun biz vatanimizning mustaqil etish barobarida vatan xissini ham yasama balandparvozlikdan poklashimiz lozim»⁶

Biz G.Matyaqubovaning ona vatanni madh etuvchi sheʼrlarini kuzatar ekanmiz

K. Baxriyevning yuqoridagi soʻzlari esimizga keladi. Shoir sheʼrlarida quruq madhiyabozlik, balandparvozlik sezmaymiz.

Yon yuragim, yongin xazonlar bilan,

Zero har bir yaproq sening boʻlaging,

Jannatiy bogʻlarga bogʻlangan vatan,

Har bargda saqlaydi ezgu tilaging.

Shu goʻzal baytlarda ona-vatan qadr qimmatining bebaholigi shoirona ochib berilgan. «Oh, vatan, men seni sevaman!» – deb baqirib chaqirgandan koʻra, mana shu tarzda samimiy, chuqur maʼnoli lutf qilishda vatanparvarlik his-tuygʻusi oʻziga xos bir tarzda, betakror insonga bir ohangda sado beradi.⁷

G.Matyaqubova sheʼriyati hayot haqiqatiga asoslangan. Shoiraning vatan haqidagi sheʼrlarida sogʻinch tuygʻulari koʻproq va bu mahorat bilan ifodalangan

⁶ K.Baxriyev. «Vatan haqida oʻylar»

⁷ Mixli Safarov «Musiqalarimizning dolzarb mummolari»

To'rtko'lim mening!
Sog'inganda bora olmasman,
Umr qancha bora olmasman,
Lekin so'lmas amuda bir gul,
Bu o'zingsan, o'zingsan To'rtko'l!

Bir qo'shiq bor: «Vatan nimadan boshlanadi?» darhaqiqat, to'g'ri savol vatan nimadan boshlanadi o'zi? tug'ilgan makon vatan ostonasi hisoblanadi. Bu muborak ostonaga hamisha va har doim pok iymon bilan qadam qo'yiladi. Chunki ona vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat va sadoqat ana shu tabarruk ostonadan tug'uladi». Bir mahallar biz o'tirgan sinf partalarini hozir ukalarimiz, singillarimiz band etishgan. Rasm darslarida ular bizga o'xshab kreml yulduzining, tanklarning, ot ustida qilich o'ynatib borayotgan chapay askarlarining suvratini chizib o'tirmasligiga iymonim komil. Chunki o'quv yili boshlanadigan kun ular jo'ravoz bo'lib milliy madhiyamizni kuylashganiga o'zim shohid bo'lganman. Rasm darslarida esa gerbimizni, bayrog'imizni suvratini oq qog'oz yuziga muhrlashadi...

Vatan mana shundan boshlanadi...⁸

Vatan nimadan boshlanadi, degan savolga shoira ijodidan quyidagicha javob topish mumkin.

Kindik qoni tomgan oddiy bo'sag'adan,
Boshlanar uning ham ota makoni,
Lekin to'xtab qolsa ko'cha boshida,
Ulg'ayib, kengayib borar vatani...

Ha, shoira vatan ma'nosini keng va borlig'icha tushunadi. Shoira vatan haqida qalam tebratar ekan, faqat To'rtko'l, O'zbekistonnigina ta'rif-tavsif qilib qo'ymasdan, o'zi tug'ilib o'sgan o'lka chegarasidan chiqadi. Barglari zumratdan bo'lgan daraxtlar, bulutlarni sermab olmoq qastida yuksakka shaxt ila o'sayotgan archalar, es-xushlarini o'g'irlovchi tovuqlar, shohdan-shohga sakrab o'ynayotgan sho'x olmaxonlar, jilosidan ko'z qamashgudek gullar, umuman, jannatmakon bir ko'rkam bog', Ravira bog'ini, toshlarga urilib, balandga sapchib, notinch

⁸ Bektemir Pirnafas o'g'li "Vatan haqida qo'shiq"

ko'pirayotgan qora dengizi, qrim tog'larini ham madh qiladi. Guliston uchun gullarning borlig'i vatan...

G.Matyaqubova «Bog'chasaroy hayollari», «So'z qo'shiqqa aylanar» she'rlarida vatan go'zalliklarini madh etsa, «Mehr-oqibat chegaralari» she'rida tog'li qorabog' , Farg'onadagi qonli fojialar haqida so'z yuritadi. Bir vaqtlar tili, dili bir-biriga yaqin qon-qarindosh bo'lgan xalqlar o'rtasida nizo chiqishi va bu nizo bir-birlariga qurol o'qtalib o'ldirishlarigacha borib yetishi shoira qalbini larzaga keltiradi.

Nahot turklar chiqib ketsin desa Farg'ona,
Bir vaqt ko'ksin ochgan dunyo farzandlariga,
O'zbekiston emasmidi mehribon ona,
Mardu-maydon turgan boshqa yurt dillariga.
O'zbekiston emasmidi boshin silagan,
Yetim qolgan go'daklarga boshpana berib,
Bugun yana esga olsak shu oqibatni,
Quriyotgan orolimiz ketardi to'lib.

«Vatan – hammamizniki!» – deydilar yurtboshchimiz I.A.Karimov. Haq gap! Hammamizning bu vatanga bo'lgan huquqimiz ham tengdir. Uni obod, elini ozod, erkin ko'rmoq, shu yo'lda ishlamoq, fikrlamoq, yashamoq har birimizning hayot tarzimiz va baxtimizdir.

Shu sababli ham G.Matyaqubova ushbu she'rida quyidagicha xulosa qiladi:
Bugun gapu, so'zimizga chegara kerak,
Yaxshilikga bo'lsin yurtning bor umidlari,
Chegarasin yo'qotmasin odamgarchilik,
Buzilmasin mehr-oqibat chegaralari.

Shoira she'riyatida tanqidiy ruh ham sezilib turadi. Guliston Matyaqubova el yurt uchun na yona oladigan, na o'z yurtini seva oladigan bedurd kimsalardan nafratlanadi.

Ular o'zin ishga bag'ishlaganlar,
Vatan, xalqi uchun vaqtin o'tkazgan,

Go‘yo oilaga o‘ralashganlar,
Xalqning dardini bilsin qayoqdan.

O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiya quyidagicha yozadi: «...U bizning ham vatan-ona tuprog‘imiz, xalqimiz taqdiri haqidagi o‘ylovlarimiz yaqin o‘tmishimiz, qancha-qancha yo‘qotishlar, oldirishlar, ishonuvchanligimiz, bag‘ri kengligimiz tufayli aldanib yashaganimiz haqidagi achchiq-achchiq kuydirgich haqiqatlar haqidagi mardona so‘zlarimizdir.

Nima? Hayotda quvonchlarimiz bo‘lmaydimi? ko‘rmadikmi? Xalq farovonligini o‘ylab kanallar qazdik, yerlarni o‘zlashtirdik. Kelajagimiz deb farzandlar, necha avlodlar tug‘ib voyaga yetkazdik. Oz bo‘lmasa ularni ham o‘zimizga o‘xshagan kishilar qilib voyaga yetkazayozdik va hayriyatki, oxir oqibat ko‘zimiz ochildi. Bir she‘rida shunday deydi:

O‘zing ayt to‘la-ku atrofimizda,
Bahoni amalga qarab berganlar,
«Bari xalq uchun» deb uqtirib bizga,
Faqat o‘zing o‘ylab yayrab yurganlar»
Lekin biz buni kech, juda kech angladik...»

Ha, biz juda kech angladik . Lekin shoira umidsizlikka tushmadi. «Xayrli ishning kechi yo‘q» deganlaridek Guliston Matyaqubova vatanning kelajagiga ishonch ko‘zi bilan qaradi. Ertangi kunlardan umidvor bo‘ldi va

Qop-qora tunlarning oq tonglari bor,
Bahorda yashnagan sarg‘aygan bog‘lar
deb yozadi.

Lekin Guliston Matyaqubovanning vatan haqidagi hamma she‘rlarini ham chinakam pozziya namunasi deb bo‘lmaydi. Yani bazi bir she‘rlarida mantiq yo‘q. Masalan «Tug‘ilgan yer» she‘rini ko‘raylik. Shoira o‘zining tog‘li yurtini quvonch, faxr bilan tilga oladi. Toza havosi tanga darmon deydi. Sizlarning bu yurtda tug‘ilmaganingizdan afsuslanadi va yozadiki «Bu atrofning changi oftobi yomon» shoira nima demoqchi o‘zi? Yurtini maqtayaptimi yoki?... birinchi, ikkinchi, uchinchi, misralariga to‘rtinchi misra mazmunan bog‘lanmagan:

-Tog‘li yurtni bir ko‘rmabsizlar,
Toza havosi taninga darmon,
Shu yurtlarda afsus, tug‘ilmabsizlar,
Bu atrofning changi oftobi yomon.
Yoki quyidagi misralarga e‘tibor beraylik:
-Oftobi quyoshdur, changi tuproq,
Teraklari baland bizning bu yerning,
Chang to‘zoni chiqib, mis qaynagan chog‘,
Paxta o‘sib chiqsa baxtimiz bizning.

Bu misralarda poetik mazmun zayif. Oftobda quyosh so‘zlari bir-biriga sinonim. To‘g‘ri, she‘riyatda emotsionallikni kuchaytirish uchun sinonim so‘zlardan foydalanish mumkin, ammo bu misrada emotsionallik sezilmaydi. «Paxta o‘sib chiqsa baxtimiz bizning», - deydi. Mabodo o‘sib chiqmasa-chi?...

Ammo shoira ijodiga nazar tashlasangiz, uning o‘ziga xos istedadli shoira ekanligini ko‘rish mumkin. Uning vatan haqidagi she‘rlaridan ham ayonki, u yurtini borlig‘icha butun go‘zalligi bilan, undagi butun ziddiyatlar bilan ko‘radi. U tug‘ilgan yerini jon dili bilan sevadi. Yurtining buyukligiga, kelajagiga ishonadi. «Aslida vatan, xalq, ona yurt, tabiat bular bir zaminda yuzaga kelgan tushunchalardir. Yolg‘iz vatanni sevib, xalqni, tabiatni sevmay bo‘lmaydi. Ona yurtga, paxta dalalariga, bobo dehqonga, tug‘ilib o‘sgan qishloqqa, so‘lim va dilbar go‘shalarga, ona xalqqa muhabbatdan ulkan va salobatli vatan tushunchasi o‘sib chiqadi» degan gaplarni N.Raximjanov xuddi G.Matyaqubovanning ijodiga qarata aytgandek, chunki shoira vatan, tabiat haqidagi satrlarni qalbdan chiqarib, sehrli, kishi qalbini larzaga soluvchi jo‘shqin va ajoyib qilib bera olgan. Uning har bir so‘zi ona-vatanga, xalqiga bo‘lgan cheksiz muhabbat bilan yo‘g‘rilgan. Guliston Matyaqubova she‘riyatidagi vatan mavzusining badiiy talqini xususida gapirganimizda she‘riyatning o‘z mavzuning og‘riqli bir nuqtasini ham o‘ziga xos shaklda yoritganligini aytib o‘tishimiz lozim bo‘ldi. Bu shoira ijodidagi orol muammosi bilan bog‘liq mavzu, orol muammosini vatan tag‘diridan ajratgan holda

qarab bo'lmaydi. Guliston Matyaqubova bu mavzuni ham o'ziga xos tarzda badiiy talqin etdi.

1.2. Tabiat tasviri she'riyatning yetakchi mavzusi

Yashayman

Toki bu tabiat

Menga qarab sezsин doimo

O'zining buyukligini

Tabiat va insoniyat... tabiat inson bilan barhayot. Shoir aytganidek tabiat inson bilan buyuk. Tabiat bu go'zallik, ko'ngil borki go'zallik shaydosi. Ezgu hislarga limmo-lim ko'ngil sohibi ham insondir. Bizni qurshagan bu sirli olam, ajib va jozibali tabiat ham hamisha dilga cho'g' solib nelargadir chorlaydi-turadi. Shoir hamisha tabiat bilan birga desak mubolag'a bo'lmas. Zero inson tabiatning bir bo'lagi bo'lsa, shoir uning jununvash shaydosi. Chin ma'nodagi hassos qalb egasidir. Bepayon dalalar, gullagan bog'lar, cheksiz osmon, tiniq va toza havo... hatto mitti gilyohlar, guldan gulga qo'nib uchayotgan kapalaklar, yovoyi o't-o'lanlar shoir nigohida o'zgacha bir tarovat kasb etadi. Manzaralarda shoira o'z dardlarini, nafaqat o'z dardi, balki she'rni o'qiyotgan kitobxon dardini ko'rganday bo'ladi:

Yog' yomg'irjon, quy qattiqroq, tinmay yog'aver,

Tabiatning biz bilmagan sirlari talay,

Quvonchlaring yomg'ir bilan ulash tomchilab,

Sen osmonni

Men ko'nglimni bo'shatib olay.

G.Matyaqubova she'riyatining aksar qismini tabiat haqidagi she'rlar tashkil qiladi. Zotan, istedodli adabiyotshunos olim K.Mambetov shoirani «Tabiat jarchisi» deb bejiz takidlamagan edi. Ona tabiatning rangin lavxalari, nozik falsafiy mushoxada bilan qorishib o'ziga xos latofat va jo'shqinlik kasb etadi.

Guliston Matyaqubova goho jo'shib goho maxzun tabiat manzaralarini kuylar ekan. Uning satrlaridan nurafshon, yorqin hayollar tug'iladi go'yo:

Hech bo'lmasa borligingni sen bildir bahor,
Qish qoriga hech o'rin yo'q iliq bag'ringda.
Tabiatda ne bor bari shu oqshom bedor,
Sen duch bo'lma loqaydlikning qattiq qahriga.
Bosh ko'tarsin mudrayotgan ko'm-ko'k o't-o'lan,
Ayyuhannos solib o'tsin momoguldirak.
Kel, bahorim, bu yerlarga issiq qon bilan,
Ilib ketsin sovuqlarda muzlagan yurak...

Shoiraning tabiat haqidagi she'rlarini mutoala qilganda unda insoniyat uchun xos bo'lgan falsafiy mushoxada ruxini xis qilish mumkin. Zotan, tabiat va inson hayoti bir-biri bilan uzviy bog'liq. Guliston Matyaqubova tabiatning holatlari manzaralaridan odamzod uchun, ularga xos xislatlar axtaradi. Shoiraning shunday ma'nodor she'rlaridan biri «Bog'lar gullayotir...» she'ridir.

Bog'lar gullayotir ko'nglimday toshqin,
Nozik bir shoxaga gul bo'lib qo'ndim.
Men uni topguncha qancha adashdim,
Issiq-sovug'iga hamisha ko'ndim.

Shoira «Hayot» deb atalmish gullab-yashnayotgan bog'dagi nozik bir shoxaga gul bo'lib qo'nadi. Yani u hayotda shoirlikni, ijodkorlikni tanladi. Bu ijodning katta yo'liga chiqib olguncha «kichik-kichik so'qmoqlarda «Qancha adashdi, barcha qiyinchiliklarga chidadi. Hayotning oxirigacha shu ijod yo'lidan ketajak. Bularning barchasi shoirona obrazlar orqali keng ochib berilgan:

Men qo'ngan shoxda yaproqlar
O'zgara boshladi bahor kelganda
Kuchga to'lib, ham o'ynab-kulib
Parvoz etgim keladi mening ham.
Bu bog'dan yiroqlab keta olmasman.
Men uchun bahodirlar kuzi-qishi ham.

O'lkamizda bahor... Ona tabiat ajib bezovtalik, Shirin uyg'onish davrida tog'lar lolalarga burkangan. Shabada g'unchalarining hush islarini asta dimoqqa

uradi Qizlar,dilbar kelinchaklar quyoshdek lovullagan atlas ko‘ylaklarda sevgi,
bahor qo‘shig‘ini aytishga malohat,nazokat,latofatlarini namoyish etishga
oshiqadi...

Shoira ijodida shundan bahor manzaralari o‘z aksini topgan.

Salom bahorimning tongi-sahari,

Salom,aziz do‘stim,ota tong yaqin.

Yana navro‘z kutar ko‘kda va yerda,

Ufqlar tozalanar chaqmoqlar chiqib.

Bir tuyg‘u tug‘ilar fikir o‘yimda,

Salom, aziz do‘stim, ota tong yaqin.

Salom, bahorimning tongi sahari,

Tinimsiz kurashchan o‘ylarim salom,

Bahor quvonchi chaqmoq misoli,

Malham bo‘ling mening tanimga har dam,

Salom bahorimning tongi sahari.

Tabiat... Naqadar go‘zal va sahovatli. Bag‘ri keng “shoir unga dilidagilarni
baralla aytadi. U tabiatga menga yonmoqni, tashvishlarni bir tomon tashlab,
daryolarday to‘lib-toshmoqni o‘rgat” deydi:

Bugun menga yonmoqni o‘rgat.

Yurak yonsin, so‘z bo‘lib ketsin...

Ko‘zlarimni kuydirguvchi dard,

Olov bo‘lib sherimga o‘tsin...

Bugun menga yonmoqni o‘rgat,

Yashamoqni bergan tabiat...

Bir qadar afsus, bir qadar gina, bir qadar jasoratli mardonavor so‘zlar ila
tabiatga murojat etadi, tabiatdan gunohkor sanamaslikni o‘tinadi:

So‘zlarimga quloq sol yurtim,

So‘zlarimni tingla tabiat,

Goho notinch, goh loqayd yurtim,

Tuyg‘ularim tushun tabiat...

qilma gunohkor.

«Intizor tuyg‘ular» o‘z ifodasini izlab, yeru-osmon aro charh urib, yana shoira yuragida qo‘nim topadi. Shu tufayli biz tuyg‘ularni rost, kechinmalari o‘tli, manzaralari go‘zal, fikrlari tiniq, azamat so‘zlarda sayqal topgan she‘ridan huzur qilamiz:

Oy faqat seni deb qalbimga botadi,
Ko‘nglimni ochaman men faqat quyoshga,
Tonglar eng avvalo ko‘nglimda otadi,
Men qudrat tilayman sabrga, bardoshga.

Tuyg‘ular oyu-yulduzlarni keza-keza o‘ziga sabr-toqat tilab, yana o‘sha ilk, qadim va qadrli bo‘stonida, oyning ruxsorini chizishga kirishib qolganini sezmaydi. Lekin ruhning oyoqlari zaminga bog‘langan. U zamindoshiga:

G‘unchalar labida tug‘yonga aylanib,
Gulning so‘zlarini so‘zlasam shamolga.
Xush anbarlar bilan uchsa u aylanib,
Va kelib g‘arq bo‘lsa bezovta xayolga.
Tunlarning skuti ketsalar buzilib,
Yulduzlar zaminga kelsalar yaqinroq.
So‘ng ular bog‘larga tushsalar urilib,
Bularni uyg‘otsa hayajon va titroq...

Yurak nigohdan ham keng bo‘ladi. Nigohdan manzaralar, voqealar yashin tezligida o‘tib ketadi. Yurak esa yorqinmi, munglimi tuyg‘ular nafasini, ularning haroratini saqlab qoladi va uning bir jilvasi xotirangda «yarq» etgudek bo‘lsa, bu she‘r tug‘ildi demakdir. Ana shu ma’noda Guliston Matyaqubova o‘zining boy mulkiga ega shoira. Bu shunday mulkki, unda tug‘yonlar alangalanib teranlikka va mahoratga aylangani sabab she‘rlari dilimizga yaqin... bunda she‘riyatning masofa bilmas fazilati, sexri kishilar qalbini to‘lqinga soladigan, yaqinlashtiradigan ajib qudrat mujassam!»⁹

⁹ Zulfiya. "Gulistonning bo‘stoni". "O‘zbekiston adabiyoti va san’ati" gazetasidan.

Ha shoir soʻzdan soʻzga, sheʻrdan-sheʻrga oʻsib bordi. Uning aytmoqchi boʻlgan dil gaplari hali koʻp. Ular mushtday yurakda oʻzin qay tamonga urishni bilmas «Agar osmonga aylanib qolsa, barcha umidlarini yomgʻirga burardi». Yani goʻzallik yaratadi, chunki shoirlar goʻzalliklar oshigʻidir. Goʻzallikni his qilgan odam ezgulik odamidir. «Yovuzlik-dagʻal, ezgulik-inja, yovuzlik qora-ezgulik oq, bu oqlik uchun kichik bir gard ham dogʻ. Demak ezgulik odamining koʻngli ham inja. U dafʻatan shod boʻluvchi, qaygʻuruvchi, hayratlanuvchi, iztirob chekuvchi, goh-goh dunyo ishlaridan ozor chekib uzlatga chekinuvchi, uzlatda koʻngil olamini mushohada etuvchi, eng goʻzal tuygʻularini sheʻrga soluvchi, kuylovchi, yigʻlovchi zot». ¹⁰ Demak, Guliston Matyaqubova ezgulik odami, mana uning quyidagi sheʻriga eʻtibor beraylik.

Tomchi-tomchi boʻlib quyardim yerga,
Nish urgan oʻtlarga baxsh etardim jon,
Soʻngra ozod shamol, tong bilan birga,
Cheksiz kengliklarni aylardim makon.
Sharbat toʻla bogʻlar, soʻlim gullarning,
Chang-u gʻuborini bir-bir yuwardim.
Ufq'larga tutash uzun yoʻllarga,
Kamalak rangida kamar boʻlardim

Sheʻrlaridan ham koʻrinib turibdiki, shoira «Tomchi-tomchi boʻlib yerga quyilishini, nish urgan oʻtlarga jon kirgizib, tong bilan, ozod shamol» bilan cheksiz kengliklarni makon qilishni, ezgulikni amal qiladi. G.Matyaqubovaning «Sezyapsanmi» nomli sheʻriga eʻtibor beraylik. Ajib-bir fasl-kuz oʻtib borayotir. Birinchi yomgʻir ham quyib berdi. Yoʻl chetidagi boʻydor qayrogʻoch ham soʻngi yaprogʻini toʻkdi. Shu kunlari sargʻaygan bogʻda sirli bir nafas kezib yuradi. Soʻqmoqlar ham bir pasga boʻylab qoladi. Shoiraning ojiz umidlari, hijron shularga qiyos. «Ikki qutb, ikki qirgʻoq orasidagi iztiroblar qancha ogʻir boʻlmasin, bu qalb oʻzanida osayishta va sokin oqib yotgan daryo zamzamalarini, qutiblararo yastanib yotgan bepayon kengliklarning manzaralarini, jonajon xalqi hayotining

¹⁰ Abduvoxid Xayit. "Goʻzal soʻz aytish istagi", "Yosh kuch" №4. 1995-yil.

yorqin lavhalarini muhabbat visoli, sog'inch tuyg'ularini muqaddaslashtira olgan qudrat uning jismini ko'tarib turgan zamin kabi hayotbaxshligini qalamga oladi. Shuning uchun shoiraning ezguliklarga to'la qalbi hijron nomli ashaddiy raqibiga ham ehtirom ko'rsatib yashashdek azobdan lazzat oladi. «Ikki ufq aro kuylab yurishda o'ziga to'zim tilaydi».¹¹

Jimlik cho'kkan go'shalar aro,
Ingrab yurar horigan shamol
Yoqavayron va motamsaro
Mening ojiz umidim misol
Eshit kuzning mung nidosini,
U ko'nglimni takrorlab turar.
Yuragimning muddaosini,
Tushinar-u yomg'ir quyilar.

Lekin shoira e'tiqod bilan yashaydi, noumid bo'lmaydi. Sog'inchning sabr kosalarini hijron toshlari sindirishga ojiz, ammo sabr-toqatlar, sadoqat-u fidoyiliklarning bahoriy shabbodalari ularning muz va qorlarini eritib yuborishga qodir. Shu jihatdan Guliston Matyaqubovanning «Ilinj» deb nomlagan she'ri «Sezyapsanmi» she'rining davomidek ko'rinadi. Biroq «Ilinj» she'rida ko'tarinkilik ishonch ruhlari sezilib turibdi.

Yomg'ir yog'di,
Ko'z yoshlari muhabbatimning.
Bog'-u rog'lar,
Tog'-u toshlar
Bag'rini yozdi.
Ko'z yoshlarim-
Dardlarimga
Dosh bera olmay,
Ko'k maysalar,
Tosh bag'ridan

¹¹ Zulfiya "Gulistonning Bo'stoni". "O'zbek adabiyoti va san'ati".

Qo‘llarini cho‘zdi.
Potrab chiqqan
Maysa emas
Umidlarimdir.
Ko‘zlarimga ko‘chayotgan
Ko‘m-ko‘k bir sevinch
Daraxtlarda borayotgan
Pokiza kurtak
So‘nayotgan umidlarimga
Beradi ilinj...

Guliston Matyaqubova tabiatga oshiq bo‘lgan shoira. Uning tabiat mavzusidagi qaysi bir she‘rini qo‘lingizga olmang, unda tabiatning bir parchasi aks etganligining guvohi bo‘lasiz. Maftunkor ona tabiatni kuylovchi she‘rlarida go‘zal bahor, oltin kuz, yoz va qish manzaralari aks etgan. «Manzara», «Kuz», «Noyabrda», «Kuz sonetlari», «Sezyapsanmi?», «Bahormi shu», «Qop-qora bulutlar» she‘rlarida kishi qalbini rom etuvchi dilbar ko‘rinishlarni aks ettirish bilan birga falsafiy mushohada qilib, uni inson hayoti bilan chuqur bog‘laydi. Shoiraning ko‘pchilik she‘rlarida hozir hamma uchun muammo bo‘lib turgan orol muammosi o‘z ifodasini topgan.

Tabiatning bitta qonunini hech qachon unutmaslik kerak. U o‘zining aql-zukko, fahm-farosat ato etgan farzandi insondan hamisha muruvvat kutadi. Aks holda noshukur bandasiga jazosi hamisha tayyor. Chunki tabiatda hech qachon bo‘shliq bo‘lmaydi. Orol muammosi bunga misol.

Bugun ko‘z o‘ngimizda planetamizda eng katta ekologik falokatlardan biri sodir bo‘lmoqda. Mamlakatimizning ulkan suv havzasi, muhim qishloq ahamiyatiga ega orol dengizi qurib bormoqda. Qoraqalpog‘istondagi ekologik ahvol, orol fojiasi Guliston Matyaqubovani ham tashvishlantirmasdan qo‘ymadi.

Kim xudoga sig‘inib yig‘lar
Aybim yo‘q hech, gunom ham yo‘q deb,
Orol esa ketdiku tuzlab,

Odamlarga hech davom yo‘q deb,
qoldi ming savol.

Qoldi bag‘ring ezib og‘ular,
Boshing uzra esar sho‘r shamol.
Zoya bo‘ldi go‘daklar umri,
Ochilgandan so‘lgan gul misol.
Uvol, uvol, uvol.

Qush qanoti bilan tirik va go‘zal bo‘lgani kabi har bir millatning qo‘sh-qanoti tabiati va tarixidir. Elning jamiki ulug‘vorligi boyligi, merosi, jasurligi, sahovati yolg‘iz shular tufaylidir. Gulistonning dardi, hayajoni bilan qorishib ketdiki, muhabbatni zamindan, zaminni dildan ajratib bo‘lmas.

Gulistonning «Orol», «Amu», «Savol», «Uch she‘r» kabi she‘rlaridan biz yurtning dardi bilan yashash, uning hayotining bosh mezoni ekanligini anglaymiz.

Orolim betobdur, qaray olmayman,
Uning o‘tli tabi kuydirar tanni.
Uning hasrati o‘rtaydi jonni,
Toshqin daryom qayda, ko‘ra olmayman,
Men bo‘lsam orolga qaray olmayman.

«Inson tabiatning ajralmas bir bo‘lagi. Quvonchli onlarda ham, xafaqon kunlarda ham ona tabiat quchog‘ida bo‘lgisi, dardlashgisi keldi. Tabiat ham saxiy sevgan farzandlaridan hech qachon mehrini darig‘ tutmaydi. Mehrga mehr bilan javob qaytaradi. Har bir odam o‘z onasi oldida qanchalik burchli va qarzdor bo‘lsa, tabiat oldida ham shu qadar qarzdordir. Demakki, har birimiz ona tabiatning mehr-muhabbatini asrab-avaylashimiz, unga aslo gard yuqtirmasligimiz kerak».¹²

Bizchi? Biz tabiatni bo‘ysindiramy deb yovuzlarcha munosabatda bo‘ldik.
Bu shoirani qattiq larzaga soldi.

Bizni bu ahvolga solgan kimlar, ayt,
Sho‘rlagan dalalar so‘raydi mendan.

¹ P.Qodirov. "Orol madad kutmoqda".

Qurigan daraxtlar mendan so‘raydi,
Yeru osmon go‘yo hukmiga hay’at.
Gullar menga gumon bilan qaraydi,
Bizni bu ahvolga solgan kimlar, ayt!

Ona tabiatning go‘zal mo‘jizalaridan biri bo‘lgan orol dengizining qismatida kaltabin odamlarning noo‘rin hatti-harakatlari asosiy ro‘l o‘ynagani bugun hech kimga sir emas. Shoir shu kishilar bilan yashayotgandan o‘zini gunohkor sezadi. «Kurashlarda chiqsin jon», «So‘zlarimga quloq sol», «Keldingizmi, jonim qushlarim» she’rlarida bular o‘z aksini topgan.

Yuragi darddan limmo-lim, ertangi yorug‘ kunlarimizdan shoir umidvor, u katta odil hukm kutadi.

Bugun sud ketmoqda, katta og‘ir sud,
Orolim, bir senmi aziyat chekkan.
So‘rov kuni keldi talonchilardan,
Sen ozod sabr qil, shoshilmagin, kut.
Seni to‘lg‘azamiz biz tomchilardan,
Albatta odil hukm chiqaradi sud.

Guliston Matyaqubovanning hamma she’rlarini yaxshi she’rlar qatoriga kirita olmaymiz. Yani ba’zi she’rlarida avtor oddiy va jo‘n gaplarni kifoyalashdan nariga o‘tmaydi.

Yomg‘ir quydi birdan bog‘larning rangi,
Changu g‘uboridan artildi toza.
Yeru-ko‘kni tutganday bo‘ldi ohangi,
Ko‘ngil, sen oldingmi ko‘kdan andoza.

She’rda fikr juda yaxshi ochib berilgan. Xo‘sh yomg‘irdan keyin havo qanday bo‘ladi? Havo changu g‘ubordan xoli, yoqimli bo‘ladi. Ko‘ngilchi? otabobolardan qolgan bir gap bor: «Kishi yig‘lasa ko‘ngli bo‘shiydi» haq gap! Shoir mana qanday qiyosiy ifodalagan. Lekin she’rda «Rangi» so‘zi faqat qofiya uchun kiritilgan. Shu she’rdagi «...bog‘larning rangi, changu g‘uboridan artildi toza» jumlasida ham uslubiy xato mavjud. Yoki quyidagi she’riga etibor qilaylik:

Uchrashgan edik-ku quyoshning toza,
Ravshan nurlarini o'g'irlab bulut.
Shodli ko'zingizdan olib andoza,
Yomg'ir quyganini etdingmi unut.

Birinchi misradagi «Toza» so'zi ham faqat qofiya uchun majburiy kiritilgan. G.Matyoqubovaning deyarli hamma she'rlarida bulut, yomg'ir, shamol so'zlari ishlatilgan. Bu so'zlardan u ko'proq tabiat ko'rinishlari bilan inson holatlarini qiyosiy ifodalash uchun foydalangan:

Qadamlaring sasi men bilan qoldi,
Qaytib kelishingni istadim juda.
Bulutlar uvillab tinchimni oldi,
Sen qaytib kelmading ...
Yomg'irlar quydi
Sen qaytgan yo'llarni qopladi tuman.

Yor ketgach lirik qahramonning oromi yo'qoldi. Sog'inch dardi gumon bilan almashti. Tabiat tasviri ham lirik qahramonning holatiga mos qilib tasvirlangan. Lekin ba'zi she'rlarida bu so'zlar ko'chma ma'noda, obraz va fikrni ifodalash uchun metaforik usulda ishlatilgan.

Qon bilan yozilgan yurakka isming,
Pokiza tuyg'ular bilan yozilgan.
Bugun ko'zlaringda sog'inchning rasmi,
Tumanlar, yomg'irlar bilan chizilgan.

Umuman Guliston Matyaqubovaning tabiat haqidagi she'rlarini o'qiganimizda, ko'z oldingizda o'lkamizning biror bir dilbar ko'rinishi milliy bo'yoqlarda namoyon bo'ladi.

1.3. Dostonlarda mavzu rang-barangligi

Azaliy mavzulardan biri bo'lgan «Vatan, tug'ulgan yer» haqida turli davrlarning ijodkorlari go'zal asarlar yaratgan, mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodida ham, hozirgi ijodkorlarimiz qalamida ham vatan mavzusini uchratish

mumkin. «Eng yangi zamonning eng asl yozuvchilari bizga yangi narsalar taqdim qilganliklari uchun emas, balki shu narsalar haqida ilgari hech aytilmagandek qilib gapirib berganliklari uchun asl deymiz» – degan edi buyuk faylasuf va shoir Gyote. G.Matyoqubovani faylasuf aytganidek asl shoirlardan deb hisoblash mumkin. Tug‘ilgan tuproq har narsadan azizdir. Kindik qoning tomgan yurtning bir qismini, zarra gardini yuragingga bosking keladi. Uning har bir yo‘llari, so‘qmoqlari qadrdondir. Unda bosilgan har bir iz mo‘tabardir. Shoir qayerda bo‘lmasin uni To‘rtko‘l haqidagi hayollar bir zum bo‘lsa ham tark etmaydi. Uning she‘rlarida ko‘proq sog‘inch mativlari uchraydi. Guliston Matyaqubova dostonchilik janrida ham qalam tebratgan shoir. Uning «Ota», «Quyosh qizi» yoki «Samo farzandi», «Aytgin menga to‘rtko‘l haqida» dostonlari, uning bu janrda ijod qilishdagi o‘ziga xos bir mahoratidan darak beradi.

«Aytgin menga To‘rtko‘l haqida» poemasida shoir vatanning, To‘rtko‘lning bir oqila qizi sifatida, shu yurtning go‘zalligi, ko‘zga surtgudek bir qism tuprog‘i haqida dil so‘zlarini ifoda qiladi. Doston asosan maktublar asosida yozilgan. Undagi barcha voqealar maktublarda va asar qahramoni bir o‘zbek yigitining daftar ichida qolgan satrlari» da hikoya qilinadi. Bu poema asosan hayotiy voqea asosida yozilgan. Shu sababli ham bu asarning xarakterli xususiyatlardan biri uning hayotiyliigi, tasrchanligi va jozibadorligidir. Poemaning qahramoni nohaq tuxmat bilan qamalib qoladi. U qamoqdalik paytida bolaligi o‘tgan go‘zal go‘shalarni, uy oldidagi qator gujumlarni qo‘msaydi. Uni to‘rtko‘l haqidagi hayollar bir zum bo‘lsa ham tark etmaydi:

Uy oldida qator gujumlar,
Shivirlardi salqin oydinda,
Bog‘ep bo‘yi hamon gavjumdir,
Bugun aytgin To‘rtko‘l haqida.
Paxta vaqti boshlandi debsan,
Men intizor kutgan xatingda.
Satrlarni o‘ydim mehr bilan,
Bugun aytgin To‘rtko‘l haqida.

Vatan tuyg'usi... Bu tuyg'uni ona tabiat barcha tirik jonzotga ro'zi nasiba qilib qo'ygan. Bu tuyg'u naqadar muqaddasdir. Vatan sezimi bor ekan, hech bir jonzot o'zi tug'ilib o'sgan manzilini tark etmaydi. Bu tuyg'u shoira poemasida ham o'z ifodasini topgan.

Hovlimizni to'ldirib chiqib,
Quyosh porlar bizning ufqda.
Sen sog'inchlar azobini o'qib,
Bugun aytgin to'rtko'l haqida.
Tez kunlarda borib qolarman,
Neki bo'lsa ko'rdim baxtimdan.
Yorim diydoriga to'yarman,
Bugun aytgin To'rtko'l haqida.

Inson o'zi tug'ilib o'sgan yeridan uzoqlashgan sari unga intilib yashaydi. Kindik qoni to'kilgan yer bir zum ham ko'z o'ngidan ketmaydi. Sog'inch hamma narsadan ustun bo'ladi. To'rtko'l sog'inchi lirik qahramon uchun baxt bo'lib hisoblanadi. Poemada Guliston Matyaqubovaning To'rtko'lga, uning muqaddas tuprog'iga, paxta dalalariga, Qadoq ko'l va mehnatkash paxtakorlarning jasoratiga bo'lgan mehr-muhabbati lirik qahraon tilidan she'riy satrlarda jo bo'ladi. Ayniqsa, sog'inch mativlari ko'proq o'z aksini topgan.

Vijdon oru nomus ortilib,
Kimga og'ir bo'lgan vaqtida,
Sen o'q yoyday to'g'ri tortilib,
Aytgin sog'inch ulkan baxt ekan.
Yurtdan ayri tushgan vaqtingda,
Pushmon «Umid», azob men bilan.
Bilsam deyman To'rtko'l haqida,
Aytgin singlim, To'rtko'l haqida.

Lirik qahramon pulni ko'rsatib, it bo'l desang it bo'ladigan, eshak bo'ladigan, pulga o'zini sotadigan kimsalar bilan hayotda yonma-yon kelib qolganligidan iztirob chekadi. U ko'proq o'tmish hayotini qo'msaydi. Dars bergan

muallimlarini eslaydi. Shu vaqtlari ularning hayotlari shirin osmon top-toza, tonglari sutlardan ham oq edi. Qahramon shu kunlar haqida o'ylar ekan, hayollari borib yana borib ona To'rtko'liga taqaladi. U To'rtko'l shahrining qurilishini, unga birinchi g'ishtning quyilishi haqidagi tarix muallimining hikoyasini eslaydi.

Birinchi g'isht Boljon biyning qo'liga tegdi.

U avomga so'zlay turib boshini egdi:

Sen to'rt gulli g'isht ekansan.

Oydinli qal'a bo'lg'in

Qo'li to'rt yoqqa yetuvchi,

El-ulus sara bo'lsin.

Obod bo'lsin bo'sag'asi,

G'ishti to'rt gul qal'aning.

Dasturxoni ochiq bo'lsin,

Keng bo'lsin uy, dalasi...

Azamatlar, boshladik! -deb ovozlar eshitildi,

Shunday qura boshladilar bizning

To'rtko'l-

To'rtko'lni...

To'rtko'l hayoli lirik qahramonni tushlarida ham tinch qo'ymaydi. U tushlarida oppoq oydinli osmonni ko'radi. Bu to'rtko'l osmoni, amudaryo u tomonga oqib boradi, lekin qahramon men amudaryo tomonga borolmayman, aybliman, deydi. Bundan qayg'uradi. Yuragidagi dardlarini qog'oz bilan sirlashadi. Oppoq qog'oz hayolari hamdard, xamroz, yaqin do'stdek tuyuladi. Quyosh chiqsa to'rtko'l yoqdan chiqdi deb yomg'ir yog'sa bulutlari to'rtko'ldan deb o'yladi.

Shamol essa keldi deyman sog'inganim el sendan,

Qiynoqlarga doim hamdard butun toza tabiat.

Ba'zan qahramon nohaq tuhmatdan qattiq iztirob chekib, hayotdan to'yib ham ketadi. O'lishga qaror qiladi. Hayot va orzu bo'm-bo'sh, yashashdan bezor bo'ldim deydi. Lekin singlisining maktublari uni bu yo'l dan qaytaradi. Yashash o'zi xatoliklar ekanki, bu xatoliklar uchun kimlardir jazo olishini tan oladi. Lirik

qahramon o'z taqdiri haqidagi o'ylarni bir chetga qo'yib, onasi haqida qayg'uradi. «Onaning yozig'i ne edi», deb eziladi. Keyin yana hayotga ishonch ko'zi bilan qaray boshlaydi. Ikkinchi umri boshlanayotganini his qiladi va endi hushyor yashashga, xatolarini bir tamonga qo'yishga axd qiladi.

Qanchalik ko'p o'ylasam hayot,
Shuncha chigallashib bormoqda.
Endi hushyor yashagim kelar,
Xatolarni qo'yib bir tamon
Buni meni bilganlar bilar,
Bilmaganlar bilmas shu yamon

Mana, nihoyat o'n yillik yurtidan ayri tushgan vaqt chegarasi tugadi. Endi qahramon ona yurtiga qaytajak. Endi u aybli emas. Yorug' yuz bilan To'rtko'lga kirib borajak. Sog'inch ham ulkan baxt bo'lib uni To'rtko'lga chorlayotir.

Shoxa edim gujumdan singan
Payvand qildi meni niholga
Men bo'y olib tik o'sayapman,
Yorug' yuzla chiqib bahorga.
Kutib olgin men borayapman,
Onam, To'rtko'l sizlar tamonga.

Mana shu kichik hajmli maktublar asosida yaratilgan poema bir yigit-lirik qahramonning butun hayoti ochib berilgan. Dostonda asosan ikki obraz: Aka va Oygul obrazlari berilgan. Shoir a poemada kompozitsion qoliplash usulidan foydalangan. To'rtko'l haqidagi afsonani keltirib o'tgan va bu afsonada Tilmoq, Nerpeys biy, Boljon biy, Mirza, ayol obrazlari ochib berilgan. Bu poemada tabiat manzaralari ham berilganki, bu ko'rinishlar qahramon holatiga mos tasvirlangan. Qahramon singlisi Oyguldan bugun xat oldi. Maktabda yaxshi xabarlar bitilgan lirik xabarlar qalbi quvonchga to'ladi va bunga monand tabiat tasviri quyidagicha berilgan.

Hali avgust, bog'lar ko'rkam soz,
Olmalarga rang enayotir

Hali qushlar ham baland parvoz,
Labida bol jilmayar anjir.
Tong tilga kirgan gullarning,
Yaprog'ida tip-tiniq shabnam
Sokin salqin uzun yo'llarning
Charchog'ini his qilayapman.
O'zim yo'qman sizlarning yonda,
Lekin uylar mehirli toshar
Har nuqtasi kon bo'lib joyda
Dalda bo'lib yuksalib yashar...

G.Matyoqubova qalamiga mansub bu poema, vatan haqida bitilgan sara asarlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shoiraning yana bir dostoni «Quyosh qizi yoki samo sadolari» dir. Bu doston Fransuz xalqining jasur qizi Janna Dark haqidadir. Doston besh qisimdan iborat. Birinchi qisimda quyosh qizi Janna haqida hikoya qilinadi. Janna latif bir husn, qaddi qomat egasi, uning qarashlari yuvosh., etiqodi kuchli, o'zi aqlli, jo'shqin. Uning «Hayoli qiz», «Go'zal», «Vatanparvar» kabi laqablari qator. U hamisha vatanni qutqarib qolishni o'ylaydi.

Qutqarib qolish uchun aziz vatanni,
O'ylar tinch qo'yishmas Jannani.

Janna vatan uchun o'rtanadi, o'ziga madadkor kuch topadi. Unga samoviy qudrat kuch beradi. Ana shunday ilohiy qudrat bilan u xalqini ozod qilishga bel bog'laydi. Vatanni ozod ko'rishni orzu qiladi. Dostonning ikkinchi «G'oliblik» deb atalgan qismida bu orzu ro'yobga chiqa boshlaydi. Janna qirol huzuriga keladi. Saroyda a'yonlar qizni sinash va masxara qilish uchun taxtga boshqa kishini o'tqazib qo'yadilar. Lekin Janna bu hiylaga o'zining aqilliligi topqirligi sababli aldanmaydi. U qirolni topib oladi va g'alabaga ishontiradi. Egniga Ritsarlik kiyimlarini kiydi.

Samimiyat yengdi Jannamiz golib,
Ham nafis, navqiron, aqlli, tolib.

Uchinchi qismida ko'pgina shaharlarning dushmandan ozod bo'lganligi, qirol g'alaba tojini kiyganligini, Janna esa «Xudoning qizi» deb nom olganligi tasvirlanadi. Janna qirolidan qishlog'ini ozod qilishini so'raydi. U xalq taqdiri bilan o'zining taqdirini o'zining taqdirini mahkam bog'laydi.

Shu ishonch men uchun zar-u xazinam,

Xalq taqdiri bilan bog'landi mahkam.

Lekin o'z xalqi ichidan chaqqon xoyinlar unga xiyonat qiladilar. Uni zindonga soldilar. Bularning boshida Janna g'alaba tojini kiygizgan qirol turdi.

Qo'lini kishanlatgan qirolning o'zi,

Baribir yengilmas u xalqining qizi.

Dostonning oxirgi beshinchi qismida Jannaning xalq dardi deb to'lib-toshgan, qilgan ishlariga javoban saroy a'yonlarining xiyonati, ularning bema'ni savollari qizning irodasini buka olmaganligi, uni o'limga mahkum qilishganlarida ham ko'zlarida ozodlik o'ti yonishi bayon etilgan.

Jafokashlar tojin boshiga kiyib,

Vatan kishanlarini uzib tashlagan.

Nozik qo'llarida qilich ko'tarib,

Tinchlik kurashiga elin boshlagan.

Janna bu muhabbat, shavqat, jasorat,

Vatanparvarlikning ramzi jannada.

Bu dostonni, nafaqat buni, umuman Guliston Matyaqubovanning ko'pchilik asarlarini kartinalar bilan sozlovchi asar deyish mumkin. Chunki shoira tabiat tasvirlariga keng o'rin beradi va bu manzaralarni ko'pincha qahramon holatiga bog'liq ravishda beradi.

Qirol yaqinlashar serhasham taxtga,

Quyosh uzatar tong sohibjamol.

Sherik bo'lmoq uchun bu oliy baxtga,

Osmondan saroyga tushadi hilol.

Yoki

Xazonlar Jannaning qayg'usi bo'lib,

Yo'llarga sochilib qoldi zafaron.

Quyosh horg'in boqar yerga termulib,

Makkor tulkilarga kelgay tez qiron.

Oftobni hech kim so'ndira olmaydi. U hamisha o'zining zarrin nurlarini sochaveradi. Dostonning bosh qahramoni Jana Dark ham ozodlik ramzi bo'lib, qalblarda muhrlanib qolaveradi.

Oftob bu olamning buyuk tirgagi,

Uni hech qanday kuch so'ndirolmagay.

U zamin-zamonning olov yuragi,

Jaholat olovi kuydirolmagay.

Xulosa qilib aytganda, G.Matyoqubovaning «Quyosh qizi yoki samo sadolari» dostoni vatan taqdiri, xalq qismati, adolat va erkni ulug'lash, zo'rlik va zulm, jaxolat, kaboxat va razolatga nisbatan ayovsiz o't ochishi bilan ajralib turuvchi asar hisoblanadi.

G.Matyaqubova bu dostonida fransuz xalqining jasur qizi haqida bayon qiladi. Umuman, professor K.Mambetov aytganidek «Uning poemasining qahramonlari «Qirq qiz» dagi Guloyim, To'maris, Janna Dark va boshqalar. Demak, G.Matyaqubova dunyodagi eng buyuk xotin-qizlar obrazini yaratmoqchi bo'lgan».

Ha, haqiqatdan ham «Quyosh qizi yoki samo sadolari» dostonining qahramoni oqila, botir, qo'rqmas, jasur qiz. Lekin Guliston Matyaqubova ba'zi bir so'zlarni tanlagan-ki, bu kitobxon qalbida shubha uyg'otishi mumkin:

Jannaga intildi G'ujg'on xaloyiq,

Ko'rmoqchi bo'ldilar bu mo'jizani.

To'planing odamlar korishga loyiq,

Ardoqlarga loyiq ko'z ojizani.

Bu yerda ojiza so'ziga etibor beraylik. Ojiza arabcha so'z bo'lib, ma'suma, bechora degan ma'nolarni bildiradi. O'n yetti yoshida ritsarlik libosini kiyib, sarkardalik qilgan qizga nisbatan bu so'zni qo'llash, bizningcha, noto'g'ri. Bu so'z ham yuqorida aytganimizdek faqat qofiya uchun majburiy kiritilgan bo'lsa kerak.

Vatan va tabiat mavzulari Guliston Matyaqubovaning «Ota», «Ne uchun sevaman bog'larda kuzni» kabi dostonlarida ham o'z aksini topgan. Ko'rdiki Guliston Matyaqubova faqat she'riyatdagina emas, epik yo'nalishlardagi dostonlarda ham o'zining nihoyatda istedodiga ega. Shoir ekanligini namoyish etdi. Uning «Daryoga botayotgan quyosh», «Ziyoga botayotgan daryo», dostonlari nafaqat Guliston Matyaqubova ijodida ayni chog'da umuman mustaqillik yillari she'riyatida o'ziga xos yechim bo'ldi deb ayta olamiz. Shoiraning har ikki dostoni ham inson tag'dirining turli qirralarini badiiy kashf etishda yangilik bo'lganligi adabiyotshunosligimizda takidlandi.

Yuqorida qayd etganimizdek G.Matyaqubova she'riyatdagina emas nasrda ham, xususan, publitsistikada barakali qalam tebratib kelayotgan taniqli yozuvchilardan.

Shu narsani alohida takidlash joyizki shoir dunyoqarashi qanchalik keng tafakkur salohiyati mustahkam, jamiyat, odamlar haqidagi tasavuri qadryatlari qay darajada boy va turli tuman bo'lsa, u yaratgan publitsistik maqolalar ham shu darajada rangbarang bo'ldi. Shu nuqtai nazardan qarasak, Guliston Matyaqubovaning publitsistik asarlari juda rangbarang mavzusi turli tuman. Ushbu faoliyatning o'zi tafakkur, salohiyat, mushohada ruhi keng va teran ekanligidan dalolat beradi.

Guliston Matyaqubova she'riyatda mohirona qalam tebratgan istedodli shoir, nasrda ajoyib hikoyalar, publitsistik maqolalar bitgan haqiqiy yozuvchi. Uning ijodining yana bir qirrasi bor. Guliston Matyaqubova dramaturgiyada ham kuchini sinab ko'rgan talantli dramaturg. Uning «Guloyim» nomli sahna asari xalqimiz, tamoshabinlar tamonidan samimiy kutib olindi.

Adabiyotimizda badiiy ijodning bir-necha janrlari bilan baravar shug'illanib hammaga manzur asarlar yaratadigan ijodkorlar juda kam uchraydi. Guliston Matyaqubova she'riyatda ham, nasrda ham, dramaturgiyada ham mohirona shoir yozuvchilarimizdan biridir. Uning ushbu janrlarda yaratgan deyarli barcha asarlari kitobxonlar she'riyat muxlislari tamonidan yaxshi kutib olindi. Ajoyib she'rlari

kompozitorlarimiz ajoyib kuylar bastaladi. Eng taniqli xonandalar bu qo'shiqlarni mavj bilan ijro etmoqda.

Guliston Matyaqubova ijodiy faoliyatining yana bir ibratli tamoni bor. Shoira o'zining she'riy, nasriy va sahna asarlari bilan faqat o'zbek adabiyotidagina emas ayni chog'da, qoraqalpoq adabiyotida baravar xizmat qilib kelmoqda. Shu boisdan ham uning asarlari har ikki respublikada yetarli darajada e'lon qilinmoqda. O'zbek, qoraqalpoq va rus tillarida Nukus va Toshkentning eng nufuzli nashryotlarida chop etildi.

Har ikki qardosh adabiyotga baravar xizmat qilib kelayotgan Guliston Matyaqubova badiiy tilning she'riyatdagi ahamiyatini teran anglab qalam tebratgan shoiralardan biridir. Uning she'rlari dostonlarining tili juda jozibali, lirik ijod ro'lini tuyg'ularini jozibali ifodalaydigan badiiy qurol sifatida o'quvchi ko'z oldida namoyon bo'ladi.

Tilshunos olim M.Bo'ranov «She'riyat sayqali so'z» nomli maqolasida Guliston Matyaqubovaning she'rlarida so'z san'atidan foydalanishdagi izlanishlarini to'g'ri takidlaydi. Avvalo shuni takidlashimiz kerakki, G.Matyaqubova o'z she'rlarida xalq tili durdonalaridan mohirona foydalangan. Jumladan, uning she'rlarida Qoraqalpog'istondagi o'g'iz, qipchoq shevalariga xos bu she'rlarda shoira lagaritni berish uchun shu so'zlardan foydalangan.

Ikkiyuzlamachilarning bir «Loyig'i» dan,

Bardoshu sabringa tilayman to'zim...

Shoira o'z she'rlarida «Sovuq» so'zining «Ag'z», «Qorang'u» so'zining «Zim-ziyo», o'sib chiqmoq fe'lining «Potramoq», «Momaqaldiroq» so'zining «Guldirmomo» kabi sinonimik so'zlarini ishlatgan. Bu so'zlar o'zbek tilining To'rtko'l shevasida faol istemolda: Ular G.Matyaqubova jilosida uning «Har tong», «Sen menga» she'rlarida uslubiy maqsatda o'rinli ishlatilganligidan mahalliy koloritni berishning bir ko'rinishi vazifasini bajargan. Busiz har qanday ajoyib g'oya, mazmun yalang'och va betasirligidan o'quvchiga badiiy zavq bera olmaydi.¹³

¹³ M.Bo'ranov.Sheriyat sayqali so'z. "Amu tongi" gazetasi 1993-y 3-aprel

G.Matyaqubova she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning badiiy tasvir vositalaridan (Metafara, o'xshatish, sifatlash) unumli foydalanganligidir:

Metafara:

Haqni kemirmoqchi bo'lar xiyonat,
Makkor tulkilarga la'nat, ming la'nat!
Qop-qora tunlarning oq tonglari bor.
Bahorda yashnagay sarg'aygan bog'lar.
Shoir she'rlarida ko'proq doimiy sifatlashlarni ishlatgan.
Sovuq havo bilan qop-qora tuman.
Pardalar osadi ko'k oynasiga
Berahm shamollar ham ayozi bilan.
Urilar zim-ziyo tun siynasiga.

O'xshatish:

Nigohlarni bog'lasa kulfat,
Bulutlarday to'lib yig'lashi.

Jonlantirish:

Unutmoqchi edim, osmon yolvorib.
Yomg'irlari bilan yig'ladi dodlab.
Qo'llarini cho'zdi tollar mung'ayib.
Men u kunni qanday chiqaray yoddan.

Guliston Matyaqubova she'riyatida alohida jozibadorlik, o'ynoqilik, hissiylikni taminlagan omillardan biri maqollardir. Fikrni sodda, ixcham, ta'sirchan ifodalash maqsadida ishlatilgan maqollar, oforizm shaklidagi iboralar she'riy misralardan kutilayotgan g'oyaviy mazmunga singdirib yuborilgan. Mana bir misol.

Yaxshilikning qo'llari uzun,
Yaxshilikning qo'llari oqdir...
Do'stlarning ko'pligi ko'ngil boyligi.
Guldirar hayotning kamisin-ko'stin.

Shoira ijodida sonetlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu janrni u juda yaxshi o'zlashtirgan. Uning ijodining o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, U sinchkovlik bilan hayotni kuzatadi. Boshqalar ilg'amagan yoki ahamiyat bermagan oddiygina hayot haqiqati orqali salmoqdor fikr ifodalashga, badiiy umumlashmalar yaratishga harakat qiladi. She'riyatning qaysi biriga nazar solmaylik, unda shoiraning o'ziga xos qalb ohangini his qilamiz. G.Matyoqubova chizadi. Inson taqdiri turmushdagi murakkabliklar, ziddiyatlar bilan uyg'un tahlil etadi: Katta xulosalar chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, shoirning lirikasida tabiat, xalq va vatan nafasi kirmagan she'rlarini uchrata olmaymiz. U doimo xalq bilan birga Guliston Matyaqubova jamoat ishlarida faol qatnashishi bilan birga, adabiyat sohasida ham barakali ijod qilmoqda.

Shoira she'riyatni, ijod qiynoqlarini o'ziga baxt deb bildi. Bu baxt uni yorqin manzillarga, kelajakka yetaklaydi.

Bu yo'lga chiqqanim butun yurt ko'rdi.

Kuzatib turibdi do'st ham dushman ham.

Deyman ortga qaytma, bo'l, dadilroq bo'l.

Bosgan har izingga she'riyat hamdam.

Istedodli shoira G.Matyaqubovaning she'rlari berdoq nomidagi davlat mukofotiga munosib bo'ldi. Bu uning istedodli ijodkor ekanidan dalolat beradi.

U endilikda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari o'quvchilariga kengdan tanilgan istedodli va sevimli ijodkor bo'lib yetishdi. Bugun uning asarlaridan nafaqat o'zbek va qoraqalpoq, rus kitobxonlari ham bahramand bo'layotganligini mamnuniyat va fahr bilan etirof etamiz.

Yana bir taxsinga loyiq fakti tilga olib o'tsak foydadan holi bo'lmaydi degan umiddamiz. Gap shundaki, Guliston Matyaqubova ijodi faqat Qoraqalpog'istondagi olimlar, shoirlar tamonidangina yuqori baholanib qolmadi, uning asarlari bugungi o'zbek adabiyotining, qolaversa o'zbek she'riyatining manman degan qalamkashlari ham yuqori baho berishgan. Abdulla Oripov, A.Matchanov, U.Azim, A.Uyg'un kabi el ardog'idagi shoirlarning Guliston

Matyaqubova she'riyati to'g'risidagi yaxshi fikrlari bor. 2005- yilda Toshkentda O'zbekiston yozuvchilar uyishmasida Guliston Matyaqubovaning «Muhabbat yurti» kitobi taqdimoti o'tkazilishi va unda o'zbek adabiyotining eng yirik adiblarining asarga yuqori baho berishi shoira ijodini butun O'zbekistonda taniqli qalam sohibi sifatida tan olinganligining bir ko'rinishi bo'ldi desak mubolag'a emas.

Shunday ijodiy salohiyatga ega qalamkashning ijodi, faqatgina bir emas bir-necha ilmiy tadqiqotlarga asos bo'la oladi deb hisoblaymiz. Shuni nazarda tutib biz shoira ijodini magistorlik dissertatsiyamiz mavzusi qilib oldik. Va o'ylaymizki bizning bu ishimiz birinchisi va oxirgisi bo'lmaydi. Shoira ijodi adabiyotshunosligimizda kelajakda turli yo'nalishlarda o'rganiladi, sanoqli ilmiy tadqiqotlar yaratiladi degan umitdamiz.

II BOB

SHE'RIYATGA YO'G'RILGAN PUBLITSISTIKA

2.1. Hayot haqiqati va publitsistik mahorat

Guliston Matyaqubova publitsistikasiga nazar tashlar ekanmiz, avvalo uning shoirona fikrlarining nasriy shakilda ifoda eta olish qobiliyatiga tan berasan kishi. «Albatta, har bir yaxshi asar o'zicha yaxshi. Har bir yaxshi asarning mehriyosi boshqa yaxshi asarning mehriyosiga o'xshamaganligi uchun yaxshi. Go'zal degan so'z bitta, lekin uning ming bir ma'nosi bor. Yaxshi asarlarning yaxshilik sirini qidirgan vaqtda hamma yaxshi asarlarga mushtarak bo'lgan bir narsa darrov ko'zga ko'rinib turadi. Ehtimolki, bu asarning maftun qiladigan asar chiqishi uchun asosiy shartlardan biri bo'lsa. Ma'lumki, san'at, shu jumladan, so'z san'ati adbiyot ham kishilarning ongiga his orqali yurak orqali tasir qiladi. Adabiyot biron ijtimoiy hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini dalillar, raqamlar bilan isbot qilib, xulosa chiqarmaydi. Uning yaxshi yoki yomon ekanligini ko'rsatib kishilarda shu hodisaga nisbatan muhabbat yoki nafrat hissi tug'diradi. Bilgan kishi bilib berishi mumkin, lekin his qilgan kishi his qilib qo'ya bermaydi. Adabiyotning zo'r tashviiy ishi ham ana shundan iborat. Kishi hech qachon dushmanning go'ri ustida boshqalarning ko'zidan yosh chiqaradigan ta'sirli nutq so'zlolmaganidek, yozuvchi biron hodisaga o'quvchida muhabbat yoki nafrat hissi qo'zg'atishi uchun avval o'sha his o'zida bo'lishi kerak.

G.Matyaqubova xalq quvonchi-yu tashvishini, respublikamiz hayotidagi ijobiy o'zgarishlarning hayotimizda tutgan o'rnini yaqqol ko'ra bilish, shoirona til bilan aytganda his qila olish qobiliyati yuksak darajada. Adiba Qoraqalpog'istonda tug'ilib o'sdi, uning kindik qoni to'kilgan zaminga muhabbati, shu zaminning mehribon kishilariga hurmatini o'z asarlari orqali ifoda etgan. Magistrlik dissertatsiyamizning asosiy qismi bo'lmish ushbu bobda uning jamiyatimiz hayotida muhim o'rin tutgan «Joyxun yoqasida o'sgan boyterak» turkum adabiy-badiiy publitsistikasiga nazar tashlab o'tishni maqsad qilib oldik. Avvalo, bu asarning dunyoga kelishi haqida to'xtalib o'tsak. Guliston Matyaqubovaning ijtimoiy hayotida tutgan mavqeyi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasining

konstitutsiyasini ishlab chiqishga, bevosita va bilvosita ishtirokiga sabab bo'ldi. Bu o'tgan asrning 90-yillarining boshlariga borib taqaladi. Adiba bu asarini yozish uchun ikki yildan ko'proq tayyorgarlik ko'rdi. Uning har bir bobini yurakdan his qilib yozishga kirishadi. Negaki, yozuvchi o'zi his qilmagan narsa to'g'risida yozsa, buni o'qigan o'quvchi ham hech narsani his qilolmaydi. O'quvchining qalbiga ta'sir qilmagan narsaning adabiyotga hech tegishliligi yo'q. «His qilinmasdan yozilgan narsa qag'ozdan qilingan gulga o'xshaydi», degan edi sevimli yozuvchimiz Abdulla Qahhor. His, ichki dard kishining qalbini topshirib yuboradi. Bunday vaqtda kishi o'zini qayerga qo'yishini bilmaydi. O'zining dardiga boshqalarni sherik qilish, yuragini bo'shatish, kishiga azob berish darajasiga etadi. Shu vaqtda qo'l qalamga boradi. Kishining ko'ziga hech narsa ko'rinmaydi. Yozish uchun hech narsa halal bermaydi. Fikr to'kila boradi. Yozib ulgurib bo'lmaydi. Guliston Matyaqubovanning «Xalqim bir yo'lga chiqdi» deb boshlanuvchi birinchi bobida mana nima bilan boshlanadi: «Bu qatorlarni men o'tgan yili ko'nglimga tugub olgan edim. Har safar Qoraqalpog'istonimizning asosi nizomi konstitutsiyamizni qo'limga olganimda qadrdon xalqimning barcha tilaklari, armonlari, yaqin obod kunlarga bo'lgan katta ishonch, ona yurtimizning sevikli O'zbekistonimizning kelajagini yorqin ko'z oldimga keltiradigan, ko'ngilga yuksak maqsadlar yuragimni cheksiz mehr-muhabbatga to'lib-toshtiradi. Xalqimiz, «Konstitutsiyamizning qabul etilishini sabrsizlik bilan kutdi. Negaki bu asosiy hujjat ertangi kunimizga borar yo'limizni yanayam chorog'on etmog'i shubhasiz edi».¹⁴

Asarning boshlanishining o'zidayoq ko'rinadiki, adiba ona yurti, tug'ilgan yeri Qoraqalpog'istonning suveren respublika yangi konstitutsiyasiga ega bo'lishini faxr va iftixor bilan yozadi va yangi qurayotganimiz huquqiy demokratik davlat nishonasi sifatida «Bu asosiy nizomimiz o'zimizning nizom, uni hech kim bizga yuqoridan turib tuzib bergan emas» – degan dalilni o'rta tashladi.

Asarning keyingi misralarida adiba konstitutsiyamizning naqadar ma'suliyat bilan tayyorlanganini yozadi. Yurtimiz qadim-qadimdanoq sharqning ma'naviyat

¹⁴ G.Matyoqubova, "Muhabbat yurti". 2002, 70-b

bashigi bo'lganligini, Jayxun va Sayxun oralig'idagi aqlim lol qoldiradigan obidalarimiz, davrlar to'foni sinovidan o'tgan qadryatlarimiz, buyuk allomalarimiz yaratgan qomusiy kashfiyotlar to'liq isbotlaydi. Tafakkurimizda Farobiyalar donishmandligi, tomirimizda To'maris va Amir Temur qoni, tuyg'umizda Shiroq va Jaloliddin Manguberdi vatanparvarligi, ongimizda Yassaviy va Naqshband ta'limoti mavj urib turibdi. Ming yillar davomida avlodlardan-avlodlarga singib kelayotgan bu botiniy ma'naviyati hech bir mustabid elimiz qalbidan yulib ololmadi. Ziyoni dud to'sa olmaganidek, zulmatlarni parchalab, vatanimiz uzra istiqloq quyoshi balqidi.

Qadim qadimdan Turon zaminida tomir otgan tarixning turli davrlarida har xil nomlar bilan atalgan jahon madaniyatiga munosib ulush qo'shgan yurtimizni mustaqil O'zbekistonni bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda. Bundan ilhomlangan Guliston Matyaqubova shunday yozadi. «Qoraqalpog'iston Respublikasining xalqi inson huquqlari va davlat suverenteti tamoyillarini tan olishni yoqlashini tantanali tarzda ifoda etib, hozirgi va kelajak avlod oldidagi javobgarchiligini his qilib ... « Ushbu so'zlarni o'qiganimizda uzoq tarix ko'z oldimizda gavdalanadi. Bizning ota bobolarimiz bir umr erkinlikka, mustaqillikka talpinib yashadilar, kurashdilar. Bu olis va mashaqqatli yo'lda ko'plab qurbonlar berildi. Kuni-tuni bilmasdan minnatsiz mehnat qilaverdi-qilaverdi, hech bir tinim topmadi. Biroq ularning manglay terlari, halol mehnatlarining natijasi ma'naviyatidan, dini va millatidan ayirishga olib borishini kech, juda kech sezib qoldi.¹⁵

Guliston Matyaqubova asarini davom ettirar ekan, bir yuz ellik yildan ortiqroq mustamlakada yashash nimalardan bizni mahrum qilganligini ichki bir dard bilan yonib yozadi: «Bu yo'lda qo'ldan berilgan bir necha o'nlagan yillarning achchiq sabog'i, barcha ezgu ishlar va armonlarning g'azabiga to'qnashdi. «Mustaqillik yo'li Qoraqalpog'istonda boy tabiiy boyliklariga ega, xalqi mehnatkash yurtning Orolini quritdi, suvini sho'rlatdi, ilgari Joyxun deb atalgan

¹⁵ G.Matyoqubova muhabbat yurti, "Xalqim ulug' yo'lga chiqdi" bobi, 2002-y, 72-bet.

suvi toshqin daryoning qaddini bukdi, uning suvlari Qoraqum va Qizilqum sahrolariga singdirib yuborildi».

Adiba publitsistikasini o'rganishga chuqurroq kirib borar ekanmiz, uning asarlarining alohida bir o'ziga xosligiga guvoh bo'lasiz. Ona yurt dardi-quvonchi bilan bitilgan satrlar milliy qadryatlarimiz ma'naviyatimiz bilan chambarchas bog'lanib ketganligining shohidi bo'lasiz. Shoir xalqimizning uzoq va yaqin tarixdagi xalqimizning taqdiriga nazar tashlab shunday yozadi.

«Xalqimizning butun bir tarixi ko'z oldimizda o'zining oltin sahifalarini ochib tashlagan edi. Bu sahifalarda qadim qipchoq dashtlari, Spitamenning so'g'dlar taqdiri uchun kurashlari, To'marisning qonli nidolari, Amir Temurning zafarlari, qadim Xorazmning milliy gumbaz, naqshinkor minoralari, bobomiz Beruniyning oliy falsafasi hamma-hammasini eslash, ko'z oldimizdan o'tkazishga esa fursat yetishmasdi».

Yoki quyidagi satrlarga e'tibor bering. Ularda Guliston Matyaqubovanning buyuk kelajak sari intilishlarini naqadar yaqqol bayon qilganiga o'zingiz guvoh bo'lasiz: «Qoraqalpog'iston O'zbekistonning yer yuziga eshik ochgan nurli yo'llaridan o'zining so'qmog'ini topib oldi: Inshoolloh bu so'qmoq qoraqalpoq xalqining, shu diyorda yashayotgan boshqa barcha xalqlarning kelajagini, obod turmushini chamalab ko'rsatmoqda, bu so'qmoq mustaqillik so'qmog'i, buyuk O'zbekistonimizning mustaqil yo'li. Komil-ishonch bilan ayta olaman, bu yo'llarning avval boshida yirik-yirik sanoat korxonalari, xalq istemol mollarini ishlab chiqarish o'rinlari, paxta, bug'doy, sholi dalalari, bog'lar turibdi. Bu yo'llarda qadrlil ota-bobolarimizning ruhi-poklari tirilib, Beruniy, Navoiy bobolarimizning, Berdax «Amudaryoning o'chmas g'azallari tilga kiradi. Bu yo'lda farzandlarimizning baxli bo'lib voyaga yetishi, aql bovar qilmas orzu-armonlari, kuch-quvvatga to'lib-toshgan qaddi qomati ko'zga tashlanadi».¹⁶

Guliston Matyaqubova ana shunday fikrlari bilan «Xalqim bir yo'lga chiqdi» publististik asariga nuqta qo'yadi. Bu asrda shoiraning o'z xalqining tarixi va taqdirini yaxshi bilganligi chuqir his qilganligi sezilib turadi. Ko'pchilik biror

¹⁶ G.Matyoqubova. "Muhabbat yurti", 2002-y, 72-bet.

asarning g'oyasi nimada ekan deb izlashga tushadilar. Shu yerda asar g'oyasiga oid Abdulla Qahhor fikrlarini ko'rib o'tsak, yuqoridagi savolga javob topgandek bo'lamiz:

«Men ilgari vaqtlarda ko'p kishilardan «Asar yozishdan oldin uning g'oyasini belgilab olish kerak», degan maslahatini eshitganman. O'sha vaqtlar shu maslahat asosida ish ko'rib, garang ham bo'lganman. Qo'limga qanday asar tushsa avval uning g'oyasini topolmas edim. Endi o'ylab qarasam o'sha urinishlar mutlaqo samarasiz, maslahatlar noto'g'ri ekan.¹⁷ Haqiqatdan shunday.

Guliston Matyaqubovanning publitsistik asarlar g'oyasi ham har kimda har xil fikr tug'diradi. Lekin komil-ishonch bilan aytish mumkinki, uning publitsistik asarlari avvalo vatanga sadoqat, xalqqa xizmat etish va milliy mafkuramizga mos va xos ravishda yaratiladi. Milliy mafkuramizning endigina shakillanib, kelayotganligini hisobga olsak, Guliston Matyaqubovanning she'rlaridagi kabi publitsistikasida ham yuksak milliy mafkura asoslarini mustahkamlashga bo'lgan intilishi juda katta. «Davlatimiz xalq manfaatlarini Konstitutsiyamiz orqali kafolatlab borayotgan ekan, unda bu haqqoniy ekanlik bo'lib hisoblanadi. Xalqimizning manfaatlarini, hammasidan oldin ijtimoiy-iqtisodiy tarafdin himoyalinishi bo'lsa, ikkinchi tarafdin o'z tarixi va madaniyatiga yon bosishi, yurt tinchligi va barqarorligi, tinch mehnat etish baxtini, uning samaralarini, rohatini tatib ko'rish baxtini, kelajakni ozod va chin ma'nodagi erkin ko'rish baxtidan iborat» deb nomlanuvchi publitsistikasida. Mana shu asarni qunt bilan o'qib chiqqan kishi, uning, oddiy xalq tilida, tushunarli qilib yozganligining guvohi bo'ladi. Xo'sh, qanaqasiga xalq tilida bunday asar yaratish mumkin? Deguvchilarga shunday javob berishimiz mumkin. Avvalo, xalqqa tushinarli asar yaratmoq uchun yozuvchida his qila olish qobilyati yuksak bo'lishi lozim. U hayotni kuzatishi, kuzatganda ham ich-ichiga kirib ketmog'i kerak. Guliston Matyaqubova ham «Xalq inson-ixtiyorini bayonlab «publitsistikasini shunday, hayotiy kuzatishlari orqali dunyoga keltirdi. Mana, masalan, quyidagi misralarga e'tibor bering. «1994-yil 8-dekabrda Toshkentda O'zbekiston Respublikasining

¹⁷ Abdulla Qahhor. «Yoshlar bilan suhbat». Toshkent, 1968-y, 36-bet.

Konstitutsiyasi qobullanganining ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisga qatnashish baxtiga muyassar bo'lgan edim. O'shanda hurmatli Prezidentimiz I.A.Karimov nutq so'zlab, mamlakatimizning jahonda tutgan o'rni, yurtimizning obodonchilikka yetishish yo'llari haqida gapirib, o'ziga, xalqiga, fuqorolariga bo'lgan ixlosini, mehribonligini, ularning farovon turmushi, kelajagi uchun javobgar ekanligini, bugungi kunda ishlayotgan har bir ish, belgilanayotgan har bir reja xuddi o'sha javobgarlikdan kelib chiqishi haqida to'lqinlanib gapirgan edi».

Shu yig'indan chiqib ketayotib, yo'lakda yonidagi birga gaplashib ketayotgan yo'ldoshga kuyib pishib bir narsalarni aytayotgan keksa oqsaqolning gaplariga quloq soldim: «Prezidentimiz juda durust aytdilar, biz bolojon xalqmiz. Shunday ekan, har bir oila bizda ko'p bolali, ko'p tamoqli. O'nlagan bolani qo'liga qaratib asrab o'tirgan, tog'ni talqon qiladigan yigit uyiga ko'lanka bo'lib o'tirsa, oxirzamon kelgani-ku? Axir bu mehnatkash yurtida mehnat qilish uchun hamma imkoniyatlar yaratib berilayotgan bo'lsa, yer o'z egalariga topshirilayotgan bo'lsa, xalqimizning qadimiy hunarmandchiligi o'ziga xoslik kasb etayotgan bo'lsa ...¹⁸

Yuqoridagi misralardan adiba, vatan oldidagi fuqorolarning burchlarini bajarishlarini, bajarishlari uchun hamma imkoniyatlar mavjud jamligini teran his qila olganligi ko'rinadi. U his qilibgina qolmasdan, mustaqil O'zbekistonimizning yorqin kelajagiga ishonadi ham Guliston Matyaqubovada tug'ilgan yeriga uning muqaddas tuprog'iga paxta dalalariga, qadoq ko'l va mehnatkash paxtakorlarning jasoratiga bo'lgan muhabbati kuchli. O'z yurtiga bo'lgan muhabbati cheksizdir. Bunga uning quyidagi qalb so'zlari guvohdir. «Mening kindik qonim to'kilgan, tug'ilgan ona makonim, bag'ringda o'sgan har bir giyoh, ko'ksinga otib turgan har bir tong, vujudingni kuydiruvchi sahrolar hammasi mening jonimdan kuch olganday, yo'q, yo'q, mening jonim sendagi har bir cho'pdan kuch olganday, tonglaringda esgan beg'ubor shamollar menga erkinlik qo'shig'ini aytadi. Ozodlik ruhini to'kadi. Qushlarning sahrolar tamonidan eshitilgan chug'urlarida ajdodlarimiz ruhi bizga shivirlayotganday ularning mayin qanotlarida qadim

¹⁸. G.Matyoqubova. O'sha manba. 2002-y, 76-bet.

bobolarning nafasi bularga kuch va jur'at, umid va qanoat urug'ini sochayotgandek».¹⁹

Guliston Matyaqubovaning «Erkinlik nishonalari» publitsistik maqolasida mana shunday qalbgaga yaqin otashin fikrlar bog'lanishi yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Uning Qoraqalpog'iston hayotiga oid publitsistikasini ko'zdan kechirar ekansiz, adibaning his-tuyg'ulari xalq ovozi bilan, o'tishi ajdodlar ruhiy madaniyati bilan chambarchas bog'lanib ketganligiga imon keltirasiz.

Adiba suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasining har bir bobini tarix bilan bog'lab, tahlil qilib beradi va har bir o'quvchida bizning konstitutsiyamiz haqiqatdan eng ishonchli, milliy qadryatlarimizni o'z ichiga singdirgan degan fikr tug'diradi. «Qadimiy ona yurtimiz yasharmoqda! Bizning erkin va ozod nafasimizda yashamoqda. Ana shu ovozimiz majmuasi Konstitutsiyamizning beshinchi moddasida «Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun bilan tasdiqlangan davlat nishonalariga bayrog'iga, gerbi va madhiyasiga ega» degan so'zlar bilan bog'langan.

Ha, bu ona zaminimiz qadim-qadimdan, paydo bo'lgandan beri o'z nishonalariga ega bo'lgan. Bu nishonalar butun borliqni yulduzlarni, oydin daryolarimiz va yuksak tog'larni, sirasini aytganda, hayotimiz nishonini o'zidan yaratgan. Amir Temur ona-yurt nishoni sifatida osmonga murojat etgan ekan. Uning qo'lidagi bayroq osmon rangiga qo'shilib, havo rangiga kirib, dushman ustidan erishilajak g'alabalardan xabar berilib turganday bo'lib, shamolda to'lg'anar edi».

Guliston Matyaqubova asarining davomida bayrog'imizdagi moviy, sariq va yashil ranglarni tarixiy va milliy madaniyatimiz, qadryatlarimizdan kelib chiqib tahlil qilib beradi.²⁰

«Jayxun yoqasida o'sgan boyterak turkum publitsistik asarining xuddi shu bobida bulardan tashqari madhiyamiz va gerbimizga ham xalq nazari bilan alohida nazar tashlanib o'tiladi. Ular badiiy-publitsistik yo'llar bilan ifodalanib, kishida o'zgacha bir kayfiyat, tabir joyiz bo'lsa, davlat kishanlariga yana ham yuksak

²⁰. G.Matyoqubova, Jayxun yoqasida o'sgan boyterak. "Amu tongi" gazetasi 7-aprel, 1995-yil.

muhabbat tuyg'ularini vujudga keltiradi. Mana, masalan quyidagi badiiy mahorat bilan yozilgan jumalarga e'tibor bering. «Yurtimizda tong otib kelmoqda! Quyoshning kumush va pokiza; oydin va oltin nurlari bu qadimiy Turon zaminning, o'lkasining tuprog'ini yana ham shurga to'ldirmoqchiday! Yonboshqala birinchi bo'lib nurlarga cho'miladi. Bo'zatovning yam-yashil to'qaylari yosh kelinchakday suluvlashadi, qadimgi Dersanning Kerdar qal'asi atroflariga kumush nurlar to'kiladi. Ellikqalaga qaytadan bo'y tikmoqchiday bo'lib, quyosh nurlariga osilib, orol tarafga ko'z tashlayotgandek ... Tong otib kelmoqda. Ovul va shaharlarimiz bo'ylab O'zbekistonimiz va Qoraqalpog'istonimizning davlat madhiyalari baralla yangraydi. Dillar mirab ketadi ...»

Guliston Matyaqubova o'z qalb izohlarini bayonlar ekan, mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi bo'lmish bolalarning musaffo hayoti, betashvish kunlari, aqlni shoshiruvchi savollari-yu, kishi bilmas o'yinlari haqida badiiy-publitsistik yo'sinda to'lqinlanib yozadi. «Ikki tarafi uzun-uzun boyteraklar bilan qurshalgan changli so'qmoqda yalang oyoqli bolalar bittadan tol chibiqlarini ot qilib minib, so'qmoqni changitib, ko'ngli quvonchga to'lib kelayotirlar. Ularning oyog'i yerda, biroq orzu-umidlari osmon, ertaklardagi «Go'ro'g'lining qanotli G'irot otida osmonga ko'tarilib uchib borayotgandek. Ularning yuraklari o'z qiniga sig'may dupurlaydi. Tomirlarida zabardast ota-bobolari qoni jo'sh urib oqadi. Ular ostidagi «Otlari»ga qamchi bosadilar. «Otlar»ning tuyoqlaridan uchqunlar sachraydi, qonotlaridan nurlar to'kiladi. «Bular bizning kelajagimiz».

Guliston Matyaqubovaning «Xalqim, boshing osmon bugun» badiiy-publitsistikasi boshqa asarlaridan keskin farq qiladi. Bu asarlarda ham adiba avvalo konstitutsiyamizga murojat qiladi. Konstitutsiyamizning 2-bob 8-moddasidagi «Qoraqalpog'iston Respublikasining xalqi millatiga qaramasdan, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari bo'lib bayon qiladi. Respublikamizdagi ko'p ming sonli millat vakillari tinch-totuv, ahil yashab, mehnat qilmoqdalar. Ular konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan huquqlaridan to'la-to'kis foydalanib qolmoqdalar. Bu ham bizning demokratik jamiyat qurishdagi olg'a qo'yilgan

ijobiy qadamlarimizdan biridir. Guliston Matyaqubova «Xalqim, boshing osmon bugun» badiiy-publitsistik asarida bu haqida batafsil to'xtalib o'tadi. O'tmishdan cheklovlar, bir qolipga solingan hayot bilan hozirgi milliy-madaniy uyg'onish davrini solishtiradi. Qoraqalpog'istondagi turli millat va elatlar dini etiqodidan qat'iy nazar ozod va teng huquqli jamligi to'g'risida yozadi. Har bir millat urf-odatlari saqlanib qolibgina qolmasdan, jamiyat tashkilotlari tarafidan qo'llab-quvvatlaganligi to'g'risida dalillarni keltiradi. Qoraqalpog'istonda yashovchi ko'p ming sonli millatlar tilida nashr etilayotgan davriy va kundalik matbuot namunalari, o'quv qo'llanmalar va badiiy asarlarga bevosita murojat qiladi. Bular demokratik jamiyatimizning oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir. Har bir demokratik jamiyatimizning oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir. Har bir demokratik jamiyatda har bir yirik sonli millatlar o'z ona tillarida bilim olishi, mustaqil o'qib o'rganishi uchun qulayliklar bo'lmog'i lozim bo'libgina qolmasdan, shart hamdir! Yuqoridagi fikrlar ham G.Matyaqubova ijodidan olingan.

«Jayxun yoqasida o'sgan boyterak» turkum publitsistik asarlarining eng keyingisi «Xalq nomi bilan» deb ataladi.

Ma'lumki, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratish ancha tortishuvlarga sabab bo'ldi. 90-yillarning boshlarida avj olgan bazi tushunmovchiliklar konstitutsiyamizning qabul etilgandan keyingina o'z yakunini topdi. Ayrim jamoalarning ichki ishiga aylanib qoldi. Adiba bu asarida ushbu voqealarga kengdan to'xtalib o'tibgina qolmasdan, uning kelib chiqishi sabablarini izlaydi, tahmin qiladi. Ohir oqibatda xalq nomi bilan ish ko'ruvchi ayrim shaxslarni emas, xalq saylab qo'ygan tegishli tashkilotlar ishiga murojat qiladi: «Xalq nomi bilan ish ko'ruvchilar respublikaning konstitutsiyasi qabul etilgach, O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurishga yana bir qadam tashlangach, jumladan qonun ustivorligini «Nizom oldida hamma birdek ekanligini tan olib umidsiz urinishlardan naf ko'rmay, o'z ichki qarama-qarshiliklari bilan qoldilar».²¹

21. G.Matyaqubova, Muhabbat yurti. 2002-yil, 95-bet.

Adiba fikrini o'qir ekansiz, goh murakkab tushunchalarga, goh xalqqa tushinarli jummalarga duch kelasiz. Ular bir-biri bilan uyg'inlashib, xalqchilikni dunyoga keltiradi.

Biz yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlarida keltirilib o'tilgan bo'lishi mumkin-u, lekin bu fikrlar aynan Guliston Matyaqubova asarlariga xosdek tuyiladi kishiga. Shoir «Jayxun yoqasida o'sgan boyterak» turkum publitsistikasining ichiga chuqurroq kirib borgan har bir kishi asardagi erkin fikrlarni o'qib olishi turgan gap.

G.Matyaqubova O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritmasdan oldin ham yetuk publitsistik asarlar yaratgan. Birgina misol keltirsak 1988-yili, yozilib, «Вести Каракалпакстана» gazetasida bosilib chiqqan publitsistikasi diqqatga sazovordir. Asarda turmushimizdagi o'zgarishlar, qayta qurishlar deb nomlangan davr bilan turg'inlik davri solishtirilib, dalillar asosida muammolar ochib tashlanadi. Muammolarga davrni yoki davr kishilari sababchimi degan savol qo'yadi va bu savolga javob izlaydi. Qishloqdagi to'ylardagina hamqishloqlarini boshqarib turuvchi qishloq raisidan tortib, «Meni majlisga ketdi deb ayting» deb go'zal kotibasiga topshiriq beruvchi yuqori mansabli amaldorlargacha tanqid qilib o'tadi. Hozirgi siyosatimizga to'g'ri kelmaydigan tarzda xalqni pastda deb biluvchi amaldorlarning ishlariga baho berib o'tadi. Bu nafaqat xalqning ma'naviyatga, balki ekologik muvozanatga ham putir yetkazganligi haqida to'lqinlanib yozadi.

G.Matyaqubovaning Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-siyosiy hayotiga bag'ishlangan publitsistikasini o'rganishga harakat qildik. Uning «Buyuklik kelmoqda O'zbekistonga» publitsistik asari ham ma'lum ma'noda yuqorida sanab o'tilgan publitsistikasining davomidir. Bu asarda hajmi va o'z ichiga qamrab olgan davri bilan ham alohida ajralib turadi. Yozuvchi ham asarini boblarga bo'lib yaratganidek, biz ham bu asarni uch qismga bo'lib o'rgansak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu qismlar quyidagi

1. O'tgan davrga nazar
2. Xalq yodi

3. Ona vatan aziz meros, shaklida bo'lishi mumkin.

G.Matyaqubova «Buyuklik kelmoqda O'zbekistonga» adabiy-badiiy publitsistikasining boshlanish qismini o'zining bolalik yillari yodi bilan boshlaydi. O'sha paytlar kishilarning fikrlari-yu, vijdon amrlari ko'rsatgan ishni, gapirolmagan gaplarining mag'zini ochishga harakat qiladi. Bir qolipga solingan hayot tarzi bilan mustaqil kunlarimizni solishtiradi: «Ana shu kunlar to'g'risida o'ylasak, uning har bir daqiqasini, har bir o'tgan kuni, oyi va yillarining bugungi bebaho mustaqilligimizning inson konglini imon-e'tiborlarga, qiyossiz toza va yorug' nurlarga to'ldiruvchi lahzalar bilan solishtirsak, biz kim edik, etmish yillar davomida bizlarni kimlarga tengladilar va bugun biz kim ekanligimizni bilganimizdan boshlarimiz osmonga yetadi.²²

G.Matyaqubova «Buyuklik kelmoqda O'zbekistonga» adabiy-badiiy publitsistikasining «Eng aziz meros-ona vatan» bobida tadbirkor, eli, vatani uchun xizmat qiladigan kishilar haqida hikoya qiladi. Mavzuning boshlanishida ona-vatan haqida o'z tuyg'u va kechinmalarini bayon qilar ekan, G.Matyaqubova beixtiyor Qoraqalpog'istonimizning bepayon sahrosi, tog'-u daryalari, adir va qirlariga nazar tashlaydi. O'zi tug'ilib o'sgan yurt bilan faxrlanadi: «Biz tug'ilib o'sgan yurt O'zbekistonimizning 37% ini o'z ichiga oladi. Qoraqalpog'istonda har bir fuqaro bu baxtdan faxrlanib yashaydi. Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy islohatlarning barchasi bu o'lkada ham o'zining ilk natijalari bilan xalqimizni quvontirmoqda. Bu quvonchni yaratuvchilari ham shu xalqning o'zi, shu xalqning fidokorligi va mehnatsevarligidir».²³

Gulnora Matyaqubova o'z fikrini bayon qilar ekan, beixtiyor bu fikrlar xalq dardi, quvonch-u tashvishi bilan uyg'unlashib ketadi. U Qoraqalpog'istonlik barcha mehnatsevar millat vakillarining ma'naviyatiga ta'luqli tarixiy dalillarini keltirib, Prezidentimiz I.A.Karimov o'rta tashlagan «Turkiston umumiy uyimiz» g'oyasi naqadar ijtimoiy ma'no kasb etganligini uqtiradi. Islom Karimovning ma'naviyatimiz, madaniyatimiz va iqtisodiyotimizni o'stirish uchun yosh kadrlarga keng yo'l ochib berish kerakligi haqidagi fikrlaridan ilhomlanib, respublikamizda

22. G.Matyoqubova, Muhabbat yurti. 2002-yil, "Uzoq va yaqin yillar" I-bob, 3-bet.

23. G.Matyoqubova, Muhabbat yurti. 2002-yil, "Eng aziz me'ros" bobi, 19-bet.

olib borilayotgan o'zgarishlarga to'xtalar ekan, G.Matyaqubova, Beruniy tumanida «Qizil qal'a» qo'ychilik xo'jalik, yosh mutaxassis Ollombergan Isaqov bilan qilgan suhbatini keltirib o'tadi. Ollombergan nafaqat tumanda, balki respublikamizda ham eng yosh kadr. U o'z qaramog'idagi davlat mulkini ko'paytirishga, kelajagimizni nurafshon etishga bel bog'lagan shijoatli kishilardan. Bunday rahbarlar kelajagimiz tayanchi istiqlolimiz posponi. Ularning oldidagi rejalari ham yuksak. Guliston Matyaqubova o'zining «Buyuklik kelmoqda O'zbekistonga» adabiy-badiiy publitsistikasi ana shunday pok niyatli kishilarga, O'zbekiston xalqiga oq yo'l tilab yakunlaydi. «Oq yo'l senga ulug' niyatlar! Oq yo'l senga yurtimga kelayotgan buyuklik! Prezidentimiz aytgan muhabbat va e'tiqod, sadoqat va bunyodkorlik har biringizning qalbingizda yashasin!» Bu Guliston Matyaqubova publitsistikasining bosh shioridir desak mubalag'a emas.

Umuman, bu imkoniyatimizdan kelib chiqqan holda Guliston Matyaqubovaning zamin saxovatiga bag'ishlangan alohida asarlaridan bir nechtasigagina to'xtalib o'tdik. Uning deyarli har bir publitsistikasida ona tuprog'imizni ulug'lovchi jumlarlar, hatto boblar uchraydi. G.Matyaqubova faqat ona vatan haqidagina emas, xalqaro mavzularda ham ajoyib publitsistik asarlar yaratib adabiyotimizni yaratib adabiyotimizni boyitdi. Biz ushbu tadqiqotimizning navbatdagi bobida shu haqida fikr yuritishga qaror qildik.

2.2. Publitsistikada xalqaro hayot mavzusi talqini

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin, chet ellar bilan bevosita do'stlik aloqalarini o'rnatish boshladi. Mamlakatimizda ko'plab chet davlatlar elchixonalari ochilibgina qolmasdan, o'sha davlatlarda elchixonamiz bayrog'i hilpiray boshlaydi. O'zbekiston Respublikasining ko'plab nufuzli tashkilotlariga a'zo bo'lishi ham, davlatimizning iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy yuksalishiga olib keldi. Oliy darajadagi xalqaro anjumanlarda teng huquqli davlat sifatida qatnashish baxtiga muyassar bo'ldik. Ana shunday anjumanlarda davlatimiz siyosiy rahbariyati bilan adiblarimiz ham faol qatnashib kelmoqdalar.

Ular qalamiga mansub xalqaro mavzudosh asarlar ham bevosita safar tassurotlariga borib taqaladi.

Guliston Matyaqubova ham 1995-yilning avgust va sentyabr oralig'ida Pekinda bo'lib o'tgan xalqaro xotin-qizlar anjumanida, O'zbekiston Delegatsiyasi tarkibida qatnashib keldi. Safar tassurotlari, anjumanda ko'rilgan muhim masalalarni yoritish maqsadida u o'zining «Yurt baxtini aytishga bordim» adabiy-badiiy publitsistikasini yaratdi. Bu publitsistika tiliga nazar solsak, uning ravonligi va xalqchilligiga, voqealar izma-izligi va badiiy vositalarni o'z o'rnida to'la qo'llanila olganligining guvohi bo'lamiz.

Asar Pekinda bo'lib o'tadigan xalqaro xotin-qizlar anjumaniga tayyorgarlik qay darajada o'tganligi haqidagi fikrlar bilan boshlanadi. Birlashgan millatlar tashkiloti tashabbusi bilan tayyorlangan maxsus poezd butun Yevro'pa va Rossiya yerlarini bosib o'tib, o'z manziliga borib yetishi lozim edi. Bu yo'lda Yevroosiyo materigining juda ko'plab davlatlaridan ayollar bir-biriga yo'ldosh sifatida borar ekanlar, ularning maqsadi bitta ayollar baxti-saodatini yanada yuksaltirish. Bu ularning maqsadi, albatta. Ularning qalblarida qanday tuyg'ular charx urayotgan ekan?

«Guliston Rossiyaning o'rmonzorlaridan o'tib borar ekan deb yozadi. Guliston Matyaqubova mazkur maqolasida go'zal tabiat emas, ona yurtning shirushakar mevalari, yetib pishgan oltin bog'lari ko'z oldimizga keladi, ayniqsa paxta dalalari oy nuriday to'lishib, chanoqlariga ko'rk bag'ishlayotgandek edi...»²⁴

Guliston Matyaqubova ona yurt sog'nchi haqida fikr yuritish bilan birga Rossiyaning diqqatga sazovor joylarini ham tasvirlab o'tadi. O'lis yo'l tassurotlarini adiba quyidagicha bayon etadi. «Yo'llar qanchalik o'lis bo'lsada vago'nlarining ichidagi turmush rang-barangligi vaqtning qanday o'tganligini sezdirmasdi. «Biz bilan Toshkentdan hamroh bo'lib kelayotgan Germanyalik jurnalistlar Birgit Shvarts va Monika Zyuxt bilan ayniqsa ona yurtimiz haqida suxbatlarimiz qizdirgandan-qizdirdi. Ular ayniqsa Qoraqalpog'istonning turmushi bilan

24. G.Matyoqubova, Muhabbat yurti. 2002-yil, "Yurt baxtini aytishga bordim" bobi, 23-24-betlar.

qiziqishardi. «Xotin qizlarimizning jamiyatdagi oʻrni haqidagi turli-tuman savollarining cheki yoʻqdek koʻrinardi hayolimda.»²⁵

Adiba bu jurnalistlarning Qoraqalpogʻistolik yoshlar haqidagi soʻroqlariga javob berishdan oldin Yevroʻpa yoshlari bilan ularning farqli tamonlarini koʻz oldidan oʻtkazdi. Voyaga yetishi bilanoq ota-onasiga salomini ham oʻqitib ketishini emas, yoki restoranlarda allambalolarni chekib, kayfu-safoga berilishlari, koʻchalarda yarim-yalangʻoch yurishlarini emas, aksincha odob-ikromli, izzat hurmatli kelajak yoshlarini koʻz oldida gavdalantiradi. Ana shu tamonlari bilan ham asar tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Shu bilan birga asardagi baʼzi maʼlumotlar siz-bizga qorangʻu boʻlgan dunyo oʻzgarishlarini ham ochib beradi. Bizning davlatimizning tinch va toʻq farovonligiga shukronalar aytadi. Koʻplagan davlatlar bilan solishtirib koʻrsatishni oʻz oldiga maqsad qilib oladi va Guliston Matyaqubova quyidagicha yozadi. «Keniya davlatida xotin-qizlar asosiy oila boquvchilari boʻlib hisoblanadi. Bu davlatda qishloq joylarda xotin qizlar haftasiga 56 soat, erkaklar 42 soat, qiz bolalar 41 soat, yigitlar 35 soat ishlaydilar. Shaharda esa ayollar haftasiga 75 soat, erkaklar 61 soat mehnat kuniga ega. 8-16 yoshli oʻsmir yoshlar eng koʻp mehnat qilishga majburlirlar. Ayniqsa yosh qiz bolalar ogʻir fizik mehnatlarni oʻz gardaniga olganliklari achinarli holdir».

Bu maʼlumotlar BMT tamonidan nashr etilgan adabiyotlarni oʻrganish orqali yuzaga keldi. Adiba maʼlumotlarni oʻrganar ekan, yana shularni keltirib oʻtadi! «Men oʻrgangan maʼlumotlarning ichidan, oʻz yurtimda ham muammo boʻlib kelayotgan ayollar mehnati, uni baholash va tan olish masalalari yer yuzida ham oʻz yechimini kutayotgan eng katta muammo ekanligini bildim. Masalan, iqtisodiy siyosat sohasida xizmat koʻrsatish uchun eng rivojlangan davlatlarda erkaklar 47, ayollar 53 foizgacha vaqtini sarflar ekan. Agar dunyo ortdirish bir yilda 16 trlyoʻn dollarga baholansa, AQSHda bu mablagʻning «Koʻrinmas boʻlagi», yani ayollar tamonidan amalga oshiriladigan nazarga olinmaydigan ish, ijtimoiy turmushdagi bajariladigan ishlar 2 trlyoʻn dollarga baholanadi. Lekin bu pullar ularga

25 G.Matyoqubova, Muhabbat yurti. 2002-yil, "Yurt baxtini aytishga bordim" bobi, 25-bet

to'lanmaydi. Ayollarning jamoatchilik ishlaridagi nazarga olinmaydigan qirralari davlat uchun beminnat xizmatdir.²⁶

Pokiston bosh ministri Benazir Bxutto xonim, Islandiyadan Vidis Finnbadottir xonim, Bangladesh bosh vaziri Begum Xolid Ziyoy, Uganda vitse prezidenti, xotin-qizlar masalasi va o'zini o'zi boshqarish ishlari bo'yicha ministr Vandira Kazibve xonim, Vetnam vitse-prezidenti Nguen Txi Bin xonimlarning fikrlarini eshitib G.Matyaqubova quyidagicha qarorga keladi: «Biz azaldan bir g'oyani o'rganib qolganmiz. Yurt, Vatan degan so'z er kishiga xos, yigit Vatansiz bo'lmasin, yigit vatanning qo'riqllovchisi, yigitning vatani xo'r bo'lmasin. Men bu keng zalda o'tirib butun dunyo ayollarining dardlarini tinglab, yuqoridagi fikrlarni chin ma'noda ayollarga ham xosligini bildirgim keladi. Chunki chiqib gapirgan har bir ayol mening qalbimda yangilik ochar edi»...

Guliston Matyaqubova topgan bu yangilik nimalardan iborat va bu yangiliklardan u qanday xulosalarga keldi. Asar davomini o'qir ekansiz, bu masalaga ham oydinlik kiritiladi: «Bugun biz xotin-qizlarning tan sog'ligi masalasini bosh vazifa etib olishimiz kerak. Yana bir masalamiz ayollarni ish bilan ta'minlashdan iborat. Negaki, ayollar ish bilan ta'minlanib, erkaklar bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lgandagina tenglik va to'qlik bo'ladi. Men Indaneziyalik ayollar bilan uchrashganimda bu narsaning guvohi bo'ldim. Ular o'zlarining turmush dasturlarini belgilab olganlar. Ana shunday dasturlar hammamiz uchun zarur».

Haqiqatdan ham hayotimiz ayollar bilan go'zal ular oila ham, jamiyatimizning boshqa tarmoqlari ham inqirozga yuz tutishi mumkin. Biz bir necha o'n yillar ayollar er odamlar bilan teng huquqli deya jar solib keldik.

Dunyoning turli burchaklaridan anjumanda qatnashayotgan ayollardan biri, Islandiya davlati vakilining ma'ruzasidan butun muhtasham saroy bir qalqib tushgandir ehtimol. Mana uning ma'ruzasini G.Matyaqubova qanday tasvirlaydi: «Hech kim, hech kimga huquq bermaydi, har kim o'zining huquqlari bilan tug'iladi. Biz o'z huquqlarimizni kimdan so'rashimiz kerak? Erkaklardanmi? Ular

26. G.Matyoqubova, Muhabbat yurti. 2002-yil, "Yurt baxtini aytishga bordim" bobi, 33-bet

o'z huquqlarini qayerdan va kimdan so'rab olganlar? Biz butun dunyodagi barcha hukumatlarni huquq masalasiga katta e'tibor berishga chaqiramiz».

Bunday chaqiriqlar ortida ona Vatan, ona zamin va dunyo ayollari dardini yangilatish istagi barq uradi. Har bir ma'ruzachining shaxsiyatiga e'tibor bersak, anjumanda qatnashgan ayollarning 40% i o'z davlati rahbariyatiga yaqin, qisqasi ichki va tashqi siyosatdan yaxshi xabardor ayollardir. O'z yurti bilan faxrlanib, g'oz turib ma'ruza qilganiga ne yetsin. Ular haqida Guliston Matyaqubova maqolasida quyidagi jummalarni o'qiymiz. «Minbarga chiqib ma'ruza qilgan xonimlarning jamoat oldida o'zlarini tutib gapirish madaniyati o'zgacha. Ayniqsa «Mening prezidentim», «Mening respublikam» so'zlari qulog'iga kirganda, ushbu so'zlarni aytayotgan ayol ortida mamlakat turgandek bo'ladi xayolimda. U o'sha davlat vakili emas, haqiqiy egasi ekandek sezaman. «Meniki» degan so'z javobgarchilikdan tashqari, mehr, ishonch, faxrlanish kabi tuyg'ularni o'ziga jamlaganiga imon keltirdim. «Mening respublikam», «Mening yurtdoshim» degan tushuncha bizning onalarimizning, barcha ayollarimizning yuksak mehri ekanligidan faxrlanib o'tirdim».

Ana shunday kechinmalar bilan o'z yurtiga qaytgan adiba o'zining «Yurt baxtini aytishga bordim» adabiy-badiiy publitsistikasini yaratdi va o'z muxlislari oldida yana bir bora mohir publitsist ekanligini isbotlaydi.

Guliston Matyaqubova davlat va jamoat arbobi sifatida, bir ijodkor jurnalist sifatida dunyoning bir necha davlatlarida safarda bo'ldi. Har bir safar ta'surotlarini yo she'r, yoki publitsistik maqola ko'rinishida qag'ozga tushirdi. Vataniga, xalqiga mehrini shu orqali bayon etdi. «Yurt baxtini aytgani bordim» nomli katta hajmli publitsistik asari shu tarzda yaratilgan.

Yuqoridagi taxlilimizdan ko'ramizki, Guliston Matyaqubovaning chet el safaridan olgan tassurotlarida uning ona vataniga mehr-muhabbati naqdar yuqori. Shoir o'z yurtini, xalqini xorijiy yurtlar bilan, ularning xalqlari bilan solishtiradi va o'z xalqining baxtidan, yutuqlaridan faxrlanadi, ko'ngli tog'dek ko'tariladi.

Guliston Matyaqubovaning she'rlarida vatan tuprog'i qanchalik ulug'lansa, uning xalqaro hayotga bag'ishlangan asarlarida ham bu mavzu bir necha baravar

yuqori darajada kuylanadi. Ushbu maqolaning katta tavsilotlaridan biri, muallifning o'z ona vatanini xorijiy davlatlar bilan qiyoslab chiqargan ibratli xulosalaridir. Hech bir yurt, davlat, qanchalik boy bolmasin, uni o'z kindik qoni to'kilgan tuproqqa almashmaslik g'oyasi uning xorijiy mavzudagi «Yurt baxtini aytgani bordim» va yana boshqa asarlarida yuksak pardalarda tasvirlangan katta yutuqdir.

Umuman, Guliston Matyaqubova she'riyatda qanchalik istedodli bo'lsa, nasrda, publitsistikada ham xuddi shunday talantga ega qalam sohibidir. Uning mana shu ikki ijod qilgan – she'riyatdagi publitsistikasi Guliston Matyaqubovani adabiy jamoatchiligimizga tanitdi. Guliston Matyaqubovanning asarlari shuning uchun ham ikki adabiyotshunoslikning taniqli tanqidchilari tomonidan ijobiy baholanib kelindi, har ikki adabiyot va adabiyotshunoslikda ardoqlanib kelayapdi.

Mana shunday ijodiy salohiyatga ega asarlari bilan ikki adabiyotga baravar xizmat qilib kelayotgan ko'pqirrali qalam soxibasi haqida bir emas bir necha ilmiy asarlar yaratsa arziydi. Uning ijodi bunday tadqiqotga to'la materyal beradi. Biz mazkur magistrlik dissertatsiyamizni yakunlar ekanmiz qush qanotli, ko'p qirrali talant egasi, bugungi qoraqalpoq va o'zbek she'riyati, nasrning peshqadam vakillaridan biri Guliston Matyaqubovanning bundan keyingi ijodiy parvozinig yanada baland bo'lishini istaymiz.

III BOB

IJODKOR INDIVIDUALLIGI VA MAVZU TALQINIDAGI O‘ZIGA XOSLIK

3.1. G.Rahimova va N.Matyakubova she’riyatining ba’diy xususiyatlari

Gulchehra Rahimova Qoraqalpog‘istonda yashab o‘zbek tilida ijod qilib kelayotgan taniqli shoiralardan biri. U talantli jurnalist sifatida ham respublikamiz jamoatchiligiga yaxshi tanish. U qariyb o‘ttiz yildan beri she’riyatda qalam tebratib keladi. Mana shu muddat ichida shoira O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonning gazeta-jurnallarida e’lon qilingan, o‘nga yaqin kitoblar nashr ettirdi, ko‘plab muxlislar orttirib, el-yurt hurmatiga sazovor bo‘ldi. Uning she’riy va nasriy to‘plamlari, o‘zbek, qoraqalpoq va rus tillarida bosilib chiqqan. Bu asarlar o‘zbek va qoraqalpoq adiblari, adabiyotshunos va tanqidchilari tamonidan ijobiy baholangan. Shoiraning adabiyotimiz va madaniyatimiz oldidagi xizmatlari davlat darajasida taqdirlangan. Unga Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni berildi. U «Shuxrat» medali sovrindori. Ha, chinakam istedodlargina mana shunday faxriy unvonlar yuksak mukofotlarga muyassar bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolani yozishdan maqsadimiz Gulchehra Rahimovaning unvonlari-yu, mukofotlarini sanab o‘tishdangina iborat emas, albatta. Mana shunday hurmat va e’tiborga sazovor bo‘lgan qalamkashning ellik yillik tavalludi baxonasida uning ijod yo‘liga yana bir nazar tashlab, adabiyotimiz rivojiga hissa bo‘lib qo‘shilgan asarlarini yana bir bor e’tirof etish, shoiraning salkam o‘ttiz yil davomida qalam tebratib, yaratgan asarlarini bugungi mustaqillik davri ruhi nuqtai nazaridan baholashdir.

Gulchehra Rahimova 80-yillarning birinchi yarmida nashr etilgan bir-necha she’riy to‘plamlari bilan adabiyotga kirib keldi. Adabiy jamoatchilikning nazariga tushdi, hurmatiga sazovor bo‘ldi. Gulchehraning qaysi she’riy kitobini varaqlab ko‘rmang, shoiraning hayot va odamlar haqidagi fikr-tuyg‘ulari juda samimiy va tabiiy chizilganligini ko‘rib ko‘nglingiz to‘ladi. Eng muhimi, ularning har biri zamon nafasi bilan sug‘orilgan. Shoira zamon va zamondoshlari to‘g‘risida, ularning qalbidagi turli xil kechinmalarni rang-barang poetik obrazlar vositasida

ta'sirli qilib berishga muvaffaq bo'ladi. Muallifning Toshkent nashryotlarida bosilgan «Ishonch», «Yupanch», kabi she'riy to'plamlaridan joy olgan har bir she'rda lirik qahramon qalbini teran taxlil qila olgan, uning kayfiyatini, ruxiyatini ochib bergan. Hayotiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirishda shoironing muvaffaqiyatli qalam tebratgani, rang-barang ifoda tasvir vositalarini qo'llab, she'rda ifodalanayotgan ma'nosining teranligi erishgani, shubhasiz muallifning ijodiy mahoratidan darak beradi. Bu chinakam talant belgisi, albatta. Bu ikki she'riy to'plam garchi shoironing ilk kitoblari bo'lsada har jihatdan mukammal bo'lib, adabiyotga o'ziga xos uslub va ohangga ega bo'lgan talantli bir shoira kirib kelayotganidan dalolat edi, hamda kelajagiga ulkan umid uyg'otgandi. Aytish mumkinki, Gulchehra Rahimova she'riyat ixlosmandlarining ishonch va umidlarini oqladi, badiiy jihatdan yetuk asarlar yaratib muxlislar orttirdi. Jumladan, uning «Mehribonlik», «To'rtko'l bahori» kabi she'riy kitoblari shoira ijodida muvaffaqiyat sari qo'yilgan yangi qadamlar bo'ldi desam xato bo'lmasa kerak. Mazkur to'plamlarga kirgan she'rlar mavzu jihatidan xilma-xil zamon nafasi bilan sug'orilgan haqiqiy ijod namunalari edi. Shoira qalbini bezovta qilgan hayot muammolari, unga ma'naviy kuch bergan insoniy munosabatlar, mehr-oqibat, sevisish-sevilish iztiroblari kabi kechinmalar lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, goh shodligi, goh qayg'u-alamlari o'quvchini befarq qoldirmaydi, o'ziga sherik qilib oladi, qalbini jizillatadi.

Gulchehra Rahimova so'nggi yillarda o'zini nasrda ham sinab ko'rdi va «Hayot-mamot va Qosimbek» nomli xotira-qissa yaratdi. Bu asar respublikamiz tumanlarida qariyib o'ttiz yilga yaqin rahbarlik lavozimlarida ishlagan, mohir tashkilotchi, ishbilarmon inson Qosim Nurimbetovning hayot yo'li va mehnat faoliyatiga bag'ishlangan. Qissaning yozilish uslubi o'ziga xos. U ko'proq hujjatlarga, asar qahramoni zamondoshlarining xotiralariga asoslanib bitilgan. Gdlyanchilarning kaboxati, adolatsizligi tufayli qissa qahramoni taqdirida ro'y bergan ayanchli voqealar dramatik shaklda bayon etilgan. Qissani o'qigan har bir kitobxon o'sha yillarda nohaq tuxmat va bo'xtonlarga giriftor qilingan sof vijdonli insonlarning qayg'uli qismati haqida to'la tasavvurga ega bo'la oladi. Kitobning

oxiriga ilova qilingan she'riy parchalarni to'ldinlanmasdan, hayajonsiz o'qish juda qiyin. Qosim Nurimbetov, uning oila a'zolari va zamondoshlari tilidan, ularning ruhiy kechinmalari shaklida berilgan she'rlarda Gulchehra Rahimovaning shoiralik istedodi, hayotning shodliklari va qayg'ulari haqida sharoit taqazosi bilan goh sevinib, goh iztirob chekib qalam tebrata oladigan extirosli, ruhiy kechinmalarga boy shoira ekanligi yaqqol namoyon bo'lgan. «Jon fido» (2001) she'rlar to'plami Gulchehra Rahimovaning ijodiy kamolot sari dadil ko'tarilib borayotganidan dalolat beruvchi yangi bir salmoqli kitob bo'ldi. To'plamga O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi To'lepbergen Qayipbergenovning «Daldangizga muxtoj» nomli maqolasining so'zboshi o'rnida ilova qilingani ushbu she'rlar majmuasining ahamiyatini yanada oshirib yuborgan. Sababi, oqsaqol yozuvchimiz ushbu she'rlar to'plamiga shunchaki, rasmiyatchilik uchungina emas, balki shoira ijodini, uning mazkur to'plamga kirgan she'rlarini professional darajada taxlil qilib, yuqori baho bergan. Eng muhimi Gulchehra Rahimova she'riyatiga xos xususiyatlarni, balki qalamkashlarda mutlaqo uchramaydigan badiiy o'ziga xosliklarni misollar orqali ko'rsatgan.

Chindan ham «Jon fido» mustaqillik davri she'riyatimizning yutuqlaridan biri, deyish mumkin. She'rlarda bugungi jo'shqin hayot, inson taqdiri, tabiat manzaralari kuylanadi, istiqlol bergan ne'matlar ulug'lanadi. Burch, masuliyat, diniy qadryatlarga sadoqat, ma'naviy soflik uchun kurash g'oyalari she'rlarning negiziga singdirilgan. Ayni paytda shoira baxtli lahzalarning qadriga yetmaydigan istiqlol kurmaklariga murosasiz, taraqqiyotimizga g'ov bo'layotgan nuqsonlarni, ma'naviy zaifliklarni dadil qoralab berishni ham unutmaydi.

Ha, Gulchehra Rahimovaning ushbu she'rlar kitobidan o'rin olgan barcha she'rlar mavzu jihatidan rang-barang, ruhiy kechinmalarga juda boy, eng muhimi, poetik salmog'i juda yuqori, falsafiy fikrlari teran. Shoira o'z qalbida tug'ilgan qarama-qarshi ruhiy holatlarni zamondoshlarining ichki olamidagi xuddi shunday kechinmalarga uyg'unlashtirib talqin etgani uchun ham uning she'rlarini ko'pchilik sevib o'qiydi, zavqlanadi, quvonchiga sherik, qayg'ulariga hamdard bo'ladi. «Jon

fidoga kirgan aksariyat she'rlar ana shu fazilati bilan alohida ajralib turadi va sizni o'ziga maftun etib oladi.

Albatta, Gulchehra Rahimovaning yuqorida tilga olingan she'riy va nasriy kitoblari, jumladan, «fido» she'rlar to'plami kamchiliklardan butunlay holi, ular faqat maqtovgga loyiq emas. Shoiri ijodidan, uning ayrim asarlaridan nuqsonlar izlasa topish mumkin. Lekin meni shoiri asarlarining nuqsonlari emas, ko'proq fazilatlari qiziqitirdi. Shuning uchun ham men umumiy yo'nalishda bo'lsada, uning ijodiy muvaffaqiyatlarini qayd etishni lozim ko'rdim. Gulchehra Rahimova ayni ijodiy kamolot bosqichida. Hali u ko'plab badiiy barkamol asarlar yaratib, adabiyotimiz xazinasini boyitadi.

O'zbek tilida ijod qilayotgan yana bir istedadli shoiri Nazira Matyakubovadir. Shoiri Nazira Matyakubova safdoshlari orasida o'zining talant yo'nalishi, ijodiy qobiliyati o'ziga xos poetik ovozda qalam tebratish mahorati bilan o'zbek va qoraqalpoq she'riyati ixlosmandlariga manzur bo'lib kelayotgan istedadlardan biri. Uning lirikada qalam tebrata boshlaganiga ancha yillar bo'ldi. Shu muddat ichida shoiri «Ko'zlari shahloginam», «Qalbm to'la salomdir», «Kim uchundir kerakman» she'riy kitoblarini chop ettirdi. Yaqinda «Yangi asr avlodi» nashryoti uning navbatdagi «Tog'lar ishq» nomli lirika kitobini she'riyat muxlislariga taqdim etdi. To'plam O'zbekiston xalq shoirasi Oydin Xojiyevaning «Haroratli she'rlar» degan so'z boshisi bilan ochiladi va unda quyidagi samimiy satrlar bor: «Nazira Matyakubovaning «Tog'lar ishq» to'plamini o'qib, she'rlaridagi samimiyat, misralaridagi joziba, fikrlarning tiniqligi, o'ziga xosligi, har bir baytda ko'ngilni yangilovchi, yurakka quvvat berguvchi alib oharli tuyg'ular borligidan suyundim... Barcha she'rlar qizlar tikkan palakday rang-barang, naqshlari xilma-xil, jilvalari ko'zni yashnatadigan, ko'ngilda bahor chechaklarini undiradigan, yomg'ir nafasli misralar o'quvchini o'ziga maftun etadi».

O'zbek she'riyatining taniqli namoyandalaridan biri xalq shoirasining etirofiga biror fikr qo'shish zarurati yo'qdek tuyuladi. Chindan ham N.Matyakubovaning she'rlari fikrlarning salmog'i, poetik obrazlarning

xususiyatlari bilan o'quvchi qalbini sehrlab oladi. Shoiraning har bir she'riga o'ziga xos falsafiy mazmun singdirilgan. Real hayotning oddiy haqiqatlarini chinakam ramziy obrazlarda, teran mushohadalar asosida talqin etish, inson taqdiri bilan bog'liq yechilishi qiyin jumboqlarga, muammolarga o'quvchi diqqatini qaratish, uni o'ylashga undash Nazira Matyakubova she'rlarining fazilatidir.

Chekimizga g'amlar tushganmi,

Nahot ular bizdan arimas?!

Odam umri gulning umriday,

Nechun g'amlar sira qarimas?!

Hayot faqat ezguliklardan iborat emas. Yaxshilik bilan yovuzlik, adolat bilan nohaqlik, go'zallik bilan xunuklik o'rtasida doimo kurash bo'lib kelgan va bundan keyin ham bo'ladi. Bu hayot dialektikasi! Har bir ijodkor inson taqdiri bilan bog'liq bu axloqiy tushunchalarni yo maqullaydi yoki inkor etadi. Shoira hamisha ezgulik tamonida turadi va xudbinlik, ko'rolmaslik illatiga muhtalo mehrshavqatdan begona kimsalarga nisbatan murosasiz ekanligini quyidagi to'rt misrada juda tasirli ifodalaydi.

Tosh zarbidan lolalar

To'kilib soyga tushdi.

Bir g'arib topsa kamol,

Yuz g'anim uyga tushdi.

«Tog'lar ishq» to'plamiga kirgan she'rlar mavzu jihatidan turlicha. Shoiraning bir turkum she'rlari muhabbat mavzusida. Ochig'i, muhabbat haqida she'r yozmagan shoir yo'q bo'lsa kerak. Lekin har bir ijodkor bu muqaddas tuyg'uni o'ziga xos badiiy shakl va mazmunda yoritadi. Ba'zilarida yo'qotilgan muhabbatning iztiroblari, hijron nolalari qalamga olinsa, ayrimlarida inson qalbiga jo'shqin kayfiyat, ko'tarinki ruh bag'ishlaydigan tuyg'ular kuylanadi. N.Matyakubova bu mavzuni hech bir shoirda uchramaydigan chiroyli tashbehlar orqali yoritishga harakat qiladi. U muhabbatning hijronidan yoki xiyonatidan kuyinib yozadimi, yo g'oyat dilbar va ta'sirli bu tuyg'udan zavqlanib, qalbi jo'shib yozadimi, baribir ehtirolarning tabiiyligiga, haqqoniyligiga erishadi.

Bugungi shodliklar chegaralangan,
Asli bu kunlarning o'zi – omonat,
Yurak qancha kuysin, o'rtanaversin,
Buyog'i sevgimas ... xiyonat!

Shoira boshqa bir she'rida muhabbatning qudratiga tan beradi, uning yolqinini o'quvchi qalbiga xuddi nurdek olib kiradi va birinchi muhabbatni qadrlashga da'vat etadi.

Birinchi sevgining qarorlari ko'p,
Shundadir, hayajon, shundadir quvonch.
Shundadir baxtingning asl ildizi,
Shundadir ilk bora porlagan ishonch.

Ayni paytda shoira «Butkul darveshga aylantiradigan», «Aqlu hushni egallab», uning «Pokiza qalbiga ilk bor beso'rov ko'ngan» muhabbatga ehtiyotroq munosabatta bo'lishni, «Ne azoblarga qolib bo'lsa ham aql bilan sevmok» ni maslahat beradi. Shoiraning: «Yigit uchun sevmok qarz, qiz uchun sevmok – mardlik», yoki: «Har yigitning oldida, bir qizday qadring bo'lsin!» kabi misralardagi fikrlar muhabbat shaydolari uchun ibrat. Sevish, sevilishdek noyob tuyg'ularning qadri, yigit va qizning bu masaladagi masuliyati hech bir shoirga o'xshamaydigan shakl va mazmunda juda ma'noli va chiroyli tasvirlangan.

To'plamdagi «Bu ishqki», «Meni seving», «Qarz», «Tog' bo'lsang ham», «Tilak», «Majburiylik», «Muhabbatni» kabi she'rlarini o'qigan kitobxon muhabbat mavzusi naqadar rangbarang, uning shodligini ham, alamini ham bir yurakka sig'dira olgan lirik qahramonning murakkab ruhiy olami yuqori badiiy saviyada talqin qilinganiga guvoh bo'ladi. She'rlarning har birida o'ziga xos sehr, o'ziga xos ma'no bor.

Adabiyotni, ayniqsa, lirikani obrazliliksiz tasavvur qilish mumkin emas. Obrazli fikrdan mahrum she'r, to'g'risi she'r emas, u hayot hodisalari haqida shunchaki quruq axborot berishning bir ko'rinishi. She'rda har qancha salmoqli fikr, muhim g'oya ilgari surilmasin agar u tasviriy vositalardan holi, «Yalang'och» bo'lsa, o'quvchining hislarini qo'zg'ata olmaydi, ma'naviyatini boyitishga qodir

emas. «Tog‘lar ishqı» dagı aksariyat she‘rlar jarangdorlıgı va samimiylıgı, fikrlarning salmog‘ı, obrazlı mushahadaning hayotıylıgı va tabiiylıgı bilan darrov o‘quvchi diqqatını tortadı.

Men ham gulmen ishoning
Gul bo‘lib bo‘y yetganman.
Afsus bir tup yantoqqa,
Almashinib ketganman.

Zehni o‘tkir kitobxon «Gul», «Yantoq» timsollari orqali qanday poetik ma‘no ifodalayotganını tushunib yetadı. To‘rtlikning ifoda shakli ham juda oddiy, xalqona ijod uslubını eslatadı. Yana bir misol.

Sen siniq shohaning
Jussasisan.
Qayda bolta bo‘lsa,
Chopadı seni.
Yo‘q asli sen ko‘rning
Hassasisan,
Qaydaki, ko‘r bo‘lsa,
Topadı seni.

Kitobdagi «Qop qora tun», «Tog‘lar ishqı», «Tafsilot», «Qalbim to‘la salomdir», «Ayol», «Dovul», «Ketgim kelmaydı» singari she‘rlar ham mana shunday ahamiyatlı fikrlarga, rangbarang ifoda tasvir vositalariga boylıgı e‘tiborga sazovor.

Endi kitobdagi she‘rlarning ifoda shakli haqida ikki og‘iz. To‘plamda har xil she‘riy shakllar qo‘llanilgan. An‘anaviy usulda yozilgan, barmoq vaznida, xalqona usulda bitilgan she‘rlar, hatto, a‘ruz vaznını eslatadigan namunalari ham uchraydı. Shu bilan birga, o‘quvchi ancha-muncha «Turtinib», ma‘nosını tushuna olmay, qiynalib-qiynalib o‘qishga majbur bo‘ladigan «Siz yaxshisiz, demoq – xato, siz zo‘rsiz. Sizga bunday buyuk ta‘rif, ming turlıgı bor», yoki: «Tun qora, g‘am qora, bari shu. O‘zga rang topmadim, bo‘yashga», Nur topmang, dur topmang, Iltimos: Kuch toping siz, Meni suyashga» kabi misralar borki, ularni oddiy she‘riyat

muxlisining «Hazm» qilishi ancha qiyin kechsa kerak. Bular, albatta, N.Matyakubovaning modern yo‘nalishdagi ijodiy izlanishlarning samaralaridan bo‘lsa kerak.

Haqiqiy ijodkor hech qachon ijodiy izlanishdan charchamaydi, erishgan yutuqlari bilan kifoyalaniq qolmasdan doimo oldinga intiladi, shu asosda qalami charxlanib asardan asarga, kitobdan kitobga mahorati oshib boraveradi. Talantli shoira Nazira Matyakubovaning «Tog‘lar ishqiq» she‘riy kitobi shu xildagi bir necha yillik ijodiy mehnatning samarasi o‘laroq maydonga kelgan, muallifning she‘riyatdagi yangi, salmoqli yutug‘idir.

3.2. Yangiboy Qo‘chqorov ijodiga doir ba‘zi kuzatishlar

Yangiboy Qo‘chqorovning she‘riyatda qalam tebrata boshlagan davri o‘tgan asrning yetmishinchi yillarining boshlariga to‘g‘ri keladi. Yosh qalamkash birinchi she‘rlaridanoq qalb kechinmalarini ramziy ma‘nolarda berishga, real voqelikdan badiiy umumlashmalar chiqarishga harakat qiladi. Ona haqida yoki uning vafoti to‘g‘risida ko‘p she‘rlar o‘qiganmiz. Ularda lirik qahramon ko‘ngildagi iztiroblar har xil shakllarda badiiy-estetik talqin etiladi. Lekin ularning hech birida quyidagi banddagidek ohang uchramaydi:

Uyimizning quyoshi so‘ndi,
Daryo bo‘ldi kozlarimda yosh.
Qop-qorong‘u qalbimni endi
Yoritolmas ko‘kdagi quyosh.²⁷

Ona vafoti tufayli lirik qahramon yuragining armoni «Quyosh», «Daryo», «Qor», «Muz» poetik obrazlari orqali ifodalanganki, shu faktning o‘zi yosh shoir ilk she‘rlaridan boshlab hayot haqida insonlar to‘grisida obrazli fikrlashga harakat qilgan.

«Asarning armoni»ga kirgan boshqa she‘rlarda ham shoirning real hayotni o‘ziga xos badiiy-estetik prinsiplar negizida ijtimoiy-falsafiy talqin etishga, axloqiy muammolar bo‘yicha muhim xulosalar chiqarishga intilgani sezilib turadi.

27. Y.Qo‘chqorov. Asrlarning armoni. Toshkent, 2002. 4-bet.

Ba'zi she'rlaridagi dadil poetik talqinlar o'quvchini ayrim insonlar haqida jiddiy mulohaza yuritishga da'vat etadi.

Bu ayolning jihozi mo'l,

Ko'pdir bashang kiyimlari...

Qulog'ida oltin sirg'a,

Barmog'ida uzugi bor

Lek uyida yolg'iz o'zi

Va bir paxmoq quchog'i bor...

Umrning mazmunini «Bashang kiyimlari, billur qandillardan, chinni buyumlardan, oltin sirg'ay-u, oltin uzuklardangina iborat» deb biladigan, ijtimoiy hayotdan, jamiyatdan ajralib qolgan tor fikrli shaxslarning ayanchli taqdirini bundan oshirib tariflash qiyin bo'lsa kerak.

Ushbu she'riy majmuaning o'ziga xos bir jihatini aytib o'tmoqchiman. Biror she'riy kitobni qo'lga olib varaqlasangiz, qariyb yarmi sevgi-muhabbat mavzusidagi she'rlardan iborat bo'ladi. Ba'zan, qayta-qayta takrorlanaverib, sayqasi chiqib ketgan bu mavzuning eskicha talqinidan xafsalangiz pir bo'ladi, hatto g'ashingizga ham tegadi, o'qimay tashlab qo'yasiz. «Asarlarning armoni»da ishqiy kechinmalar ruhida yozilgan soxta she'r uchramaydi. Shoir bu mavzuni nega chetlab o'tdi ekan, degan fikr hayolga keladi. Muhabbat asrlarning armoniga kirmasmikan, degan o'yga ham borasiz. Umuman, lirikani muhabbatsiz tasavvur qilish mumkunmi o'zi? Degani savol ham boshingizni qotiradi. Nazarimda, muallif hayolini, birinchi navbatda, asrlarning armoni chinakamiga band etgan, ijtimoiy muammolarning badiiy talqini ko'proq qiziqtirgan. O'tgan asrning saksoninchi-to'qsoninchi yillaridagi O'zbekiston hayotidagi muhim siyosiy o'zgarishlar, qisman murakkab voqealar va ularning o'zbek xalqi taqdiridagi asoratlari, mustaqillikka erishish yo'lidagi intilishlar, istiqlolni mustahkamlash uchun olib borilgan kurashlar shoirning diqqat markazida bo'lgan. She'rlarning bir turkumi mazkur masalalarning badiiy talqiniga bag'ishlangani shoirning davr ruhidan nafas olib, o'z xalqining «O'ti bilan kirib, kuli bilan chiqqan»ligidan, uning mehnat va kurashida she'rlari bilan ularga ma'naviy tayanch bo'lganidan darak emasmikan?

Shoirning «Qayta qurish poyoni qayda?», «Iztirob», «Savol», «Xitob», «O‘zbekiston», «O‘talar» she’rlarida davr jarohatlari, sho‘rolar siyosatining o‘zbek xalqi boshiga solgan kulfatlari, o‘tkazgan zug‘umlari ochib tashlanadi. Bu she’rlarni, umuman, muhabbat tuyg‘ulari tasviridan holi deb hisoblash noto‘g‘ri. Ularda ham lirik qahramonning ishqiy kechinmalari, talqini bor. Lekin bu talqinda ijtimoiylik ustun. Shoir qandaydir yurak sirlari bilan bog‘liq intim ishqiy kechinmalarni emas, balki muhabbat bilan bog‘liq kayfiyatlarini Vatan, xalq taqdiriga bag‘ishlaydi. Vatan, xalq hayotidagi tub burilishlarni, ma’naviy yuksalishdagi kashfiyotlarni yoki el-yurt, xalq boshiga tushgan og‘ir kunlarning musibatlarini badiiy yoritishda shoir bu muqaddas tuyg‘uning kuchidan foydalanadi, albatta. Bu yerda endi muhabbat olijanob ishlarga havas va ehtirom, nopok axloqiy harakatlarga nisbatan nafrat tuyg‘ularini uyg‘otuvchi qurol vazifasini bajaradi.

Shoirning bir turkum she’rlari sho‘rolar tuzumi davrida yozilgan. Eski zamonning mafkurasi qilich yalang‘ochlab turgan bir paytda mustabid jamiyatga nisbatan tanqidiy fikr bildirib, uning nobopligini oshkor aytish uchun shoirlik talantidan tashqari, ijodiy dadillik ham kerak. Shoir o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotiga xos illatlarni she’rga solib aytishdan qo‘rqmadi.

Tinim bilmay shomu saharlar,
Bunyod etding go‘zal shaharlar.
Bol o‘rniga yutding zaharlar,
Sira rohat ko‘rdingmi xalqim.

Yoki:

Bir tepakal tergovchi keldi,
Tiqaverdi turmaga elni.
Bog‘lamasdan haq uchun belni,
Panalarda yotmoqda kimlar,
Yurtimga tosh otmoqda kimlar?!

Mana, yana bir kichkina misol:

Dori sepsa tayyoraning

Tagida ham qoldilar,
Ne uqubat bo'lsa barin
Ichlariga oldilar.
Lyonya Tog'a «Yulduz» larga
To'ldirganda ko'krakni.
El qatori chalaverdi
Guldirosli qarsakni...

Shoir mustaqillik yillarida ham zamon ruhidan nafas olib, davrning shiddatli qadamlariga jo'ravoz she'rlar bitdi. Istiqlolning birinchi kunlaridanoq she'rlari bilan hayotga faol aralasha boshladi, mamlakat va har bir inson hayotining uzviy qismiga aylangan mustaqillikni qo'llab-quvvatlab, she'rlar yozdi.

Istiqlol yo'l ochib berdi
Tadbirkorlik, bilimga.
Yurtimni tan olmoqdalar
Sharq-u shimol, g'arb yoqda.
Xalqning qo'li mehnatdadir,
Dili esa ollohda...

Misralar jo'n, oddiy, hammaga ma'lum gaplarni takrorlayotgandek bo'lib ko'rinishi mumkin. Biroq obyektiv voqelikning shoir qalbiga ta'siri nuqtai nazaridan qarasak, davr haqiqati she'rda o'ziga xos tipik kechinmalar orqali ifodalanganini his qilamiz.

Shoir she'riyatining bir o'ziga xosligi bor. U muayyan g'oyani ifodalash uchun har bir she'rda tarixiy ma'lumotlarga ko'proq murojat etadi. Bu davlat arbobi, sarkarda, buyuk olim, tarixiy shaxs, joy nomi yoki biror mashhur yozuvchi yoxud uning asari, yo folklor namunasi bo'lishi mumkin. Muallif ularni she'rda shunchaki keltirmaydi, balki poetik obraz shaklida foydalanadi. Bu, bir jihatdan tarixda iz qoldirgan yoki unutilib borayotgan xalqimizning milliy qadryatlarini she'riy satrlarga muhrlash bo'lsa, ikkinchidan, she'rning milliy zaminini mustahkamlaydigan vosita hamdir. Bunday materyallardan foydalanish uchun shoirida ilm va bilim salohiyati, o'sha manbalarni chuqur idrok etib, asar g'oyasini

ochishga xizmat qiladigan nuqtalarini to'g'ri tanlab, tahlil eta olish qobiliyati ham bo'lishi kerak. She'r syujetiga olib kirilgan har bir tarixiy fakt, hatto eng kichik detal ham, mayli u uzoq o'tmishdan tanlanganmi yoki hozirgi hayotdan olinganmi, farqi yo'q, poetik g'oyani ifodalashga bo'ysundirilishi shart. Aks holda, u asar uchun ortiqcha yuk. Shoir ko'pgina she'rlarida bu poetik usuldan maqsadga muvofiq foydalangan. Jumladan, «O'talar», «O'zbekiston», «Turnalar», «G'urur», «Da'vat», «Qora kursidagilar», «Iztirob» nomli she'rlarda qo'llanilgan shaxs (Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Amir Temur) nomlari lirik qahramonning hayajonini iftihorini ifodalovchi, fikrini tasdiqlovchi poetik obraz vazifasini bajargan.

Har bir she'rning tug'ilishiga nimadir sabab bo'ladi. Shoirga biror hayotiy voqea tasir ko'rsatadi, qalbida asar yozish istagini uyg'otadi. Va shu niyatni amalgam oshirish, muayyan g'oyani ifodalash uchun badiiy shakl izlaydi. Nazarimda, Y.Qo'chqoro'vning «Turnalar» she'rining yaratilishiga xuddi shunday hayotiy turtki sabab bo'lgan. Shoir ochiq maydondagi katta bir tadbirda o'tirganida, osmon uzra bir manzildan ikkinchi manzilga uchib borayotgan turnalarga ko'zi tushdi. Bu manzara uni ijodiy hayolga tortib ketadi. O'zbek xalqining uzoq va yaqin o'tmishidagi buyuk shaxslarning taqdirларini, bir zamonlar jahonni titratgan siymolarning tarix oldidagi xizmatlarini hayolida gavdalantiradi. Ularni uchib borayotgan turnalarga qiyos qiladi. Shoirida bu fikrni she'rga solish istagi tug'iladi va «Turnalar» degan she'r shu ilhomning natijasi o'laroq maydonga keladi.

She'rda muayyan syujet oqimi mavjud. O'zbek xalqi tarixida sodir bo'lgan voqealar, psixologik o'zgarishlar, xalq taqdirida, jamiyat hayotida ijobiy yoki salbiy ro'l o'ynagan tarixiy shaxslarning faoliyati izchil tasvirlanadi. Ularning har biri ufqda parvoz qilayotgan turnalarga o'xshatiladi. «Belda qilich, qo'lda qalam va soz tutgan Muhammad Raximxon, buyuk alloma Najmiddin Kubro, jasur sarkarda Jaloliddinlar o'sha turnalarning timsollaridir. Ular o'z zamonida tarix oldidagi xizmatlarini a'lo darajada bajarib, avlodlarga ibratli ishlarini meros qoldirgan ulug' bobolarimiz ekanligi haqidagi fikr she'rning ichki mazmuniga

singdirilgan. Shoir tarixiy faktlardan badiiy umumlasmalar yaratishda turna obrazidan muvaffaqiyatli foydalangan.

Bir turna Cho'lponmi, birisi Fitrat,
Uchib bormoqdalar qayerni ko'zlab?
Yoki Hojixonmi ohista ketgan
«Kajhang suvora»ning pardasin izlab?!
Nazdimda bir turna Otajon hofiz,
Biri shoir do'stim Muhammad Yusuf...

She'rning o'quvchiga ibrat bo'ladigan jihatlari kop. Poetik obrazlarning originalligi, tarixiy faktlarni badiiy talqin qilishdagi o'ziga xoslik, shoir tuyg'ularining samimiyligi va ma'lum darajadagi ijtimoiy jo'shqinlik, salmoqli fikr she'rning badiiy mukammallik xususiyatlaridir.

Shoirning shunday she'rlari ham borki, ularning bandlari to'rtliklarni eslatadi. Yaxlit va teran falsafiy ma'noli bunday she'rlarning ifoda shakillari oddiy bo'lib korinsa-da, ifodalanayotgan g'oya kitobxon uchun ibrat.

Har qanday qush bo'lolmas bulbul,
Quzg'un bilan kalxati yomon.
Yurtim uchun badniyat, baxil
Muxolifning hasadi yomon! (36-bet)

Endigi so'z shoirning «Otajonning iltin sozi» dostoni haqida. Otajon Xudayshukurov o'zbek mumtoz qo'shiqchiligi tarixida o'ziga munosib sahifa ochgan san'atkorlardan biri. Y.Qo'chqoro'v shu hofiz haqida maxsus doston yozib, uning siymosini birinchi marta badiiy adabiyotda abadiylashtirgani ayni muddaodir. Dostonning syujet qurulishi o'ziga xos. Epik yo'nalishdagi yaxlit va izchil voqea tasviri ko'zga tashlanmaydi. Hofizning xarakter qirralarini ochib berishga xizmat qiladigan hayotiy lavhalar ham ko'p emas. Doston lirik qahramon (shoir) monologidek jaranglaydi. Aksariyat voqealar shoir nutqi orqali beriladi. Har bir lirik monologda san'atkorning xarakter belgilarini ochib berishga alohida diqqat qilinganki, bu holat shoirning xarakter yaratishda o'z ijodiy prinsipiga tayanib ish ko'rganidan dalolatdir. Hofiz siymosini, xarakter xususiyatlarini biz

shoir nutqi orqali ko'z oldimizga keltiramiz. Otajon hofizning Komiljon Otaniyozo'v bilan ilk bor tanishuvi, ustoz-shogirdlik munosabatlari to'g'risida xalqimiz orasida har xil mish-mish gaplar yuradi. Bu haqidagi aniq ma'lumotni Otajon Xudoyshukurovga sirdosh, hamfikir bo'lgan doston muallifining o'zidan eshitish boshqacha. Shu ma'noda Y.Qo'chqorov uchrashuv tavsilotini doston syujetiga qo'shib to'g'ri qilgan. Albatta, u asarga shunchaki voqea sifatida kirmagan. «Mish-mish»dan bir g'oyaviy maqsad uchun foydalanilgan. Ushbu lavha tasviridan endigina san'atga qadam qo'yayotgan yosh xonandaning taqdirida Komiljon Otaniyozovdek buyuk san'atkor o'git-nasixati katta badiiy takidlash nazarda tutilgan.

Nogoh ustoz qoshidagi
Doirachi o'tdi chetga.
Tabi qochdi shudring bo'lib
Marjon teri chiqdi betga.
Ustoz o'zin yo'qotdi sal,
Hayron boqdi har tomonga.
Qayoqdandir jur'at kirdi
O'n bir yashar Otajonga.
Qo'lga oldi doirani
Ustozga jo'r bo'ldi jiddiy
O'sha oqshom taom chog'i
Unga ustoz chaldirdi kuy.
«Yamon emas. Musiqaga
Sidqi dildan o'qishi shart.
Bilib olsin g'azal nima,
Muxammasu ruboiy, fard».²⁸

Dostonda hofizning san'atga kirib kelishidan tortib, to umrining oxiriga qadar el xizmatida bo'lishi, do'stlar orttirishi, Xorazm qo'shiqchilik san'atining dovrug'ini jahon bo'ylab taratishda ko'rsatgan xizmatlari real faktlar misolida

28. Y.Qo'chqorov. Otajonning so'zi. Toshkent, 2004. 35-bet.

hikoya qilinadi va shular orqali hofizning ham inson, ham san'atkor sifatidagi xarakter qirralari ochib beriladi.

Dostonning fazilatlari haqida gapirganda uning yana bir o'ziga xosligiga etibor berish zarur. Asarda Otajon Xudoys hukurov voyaga yetgan adabiy-madaniy muhit yaxshi yoritilgan. Jayxun-u Orol, To'maris-u Iskandar deysizmi, Zardusht bobo nasllari, Qurbon ota bilan Sheroziy gormonlari bo'ladimi, Hojixon-u Komiljonning navolari, «Bozirgon»-u «Oshiq-G'arib» dostonlari, Xorazmning «Segohi»-yu «Suvoro»lari va yana vohaga xos behisob adabiyot va san'at gulshanining nodir yodgorliklari doston syujetiga olib kirilgan va shunday betakror o'lkadan Otajon Xudoys hukurovga o'xshagan san'atkorlar chiqishi tasodifiy emas, degan badiiy fikr badiiy asoslangan. Dostonni o'qigan har bir kitobxon nafaqat Otajon Xudoys hukurovdek san'atkor bilan zamondosh bo'lganidan faxrlandi. Shuningdek, dovrug'i olamga yoyilgan farzandi ekanligidan ham qalbida sevinch tuyg'usini his etadi. Asarning o'quvchiga ma'naviy zavq berib milliy qadryatlarga hurmatni shakillantirishdagi tarbiyaviy ahamiyati ham shunda.

Dostonning kompozitsion qurilishida biroz tarqoqlik bordek tuyuladi. Ayrim lirik chekinishlar asosiy mavzuga bog'lanmay qolgan, mustaqil bir asardek taassurot qoldiradi. Muhimi, ularning hofiz xarakteriga xos biror qirra ochib berishdagi ro'li unchalik sezilmaydi. Dostonning oxirrog'ida ko'p odamlarning ismlari tilga olinadi. Savol tug'iladi. Ular Otajon Xudoys hukurovga qay darajada aloqador? Hofizni ko'rganmi, muloqotda bo'lganmi? Harholda, bu sanoqlar doston uchun ortiqchadek tuyuladi menga. Doston voqealariga kirishmasdan oldin shoir o'ndan ortiq O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning taniqli shoir va yozuvchilari, San'atkorlarining Otajon Xudoys hukurov haqidagi xotiralaridan namunalar keltiradi. Bunday ma'lumotlar dostonning ichki qurilishiga ham qo'shilgan. Ora-orada estaliklardan parchalar keltirib, shoir yana o'z she'rini davom ettiradi. Menimcha, bunday usul o'quvchining diqqatini bo'ladi, hatto chalg'itishi ham mumkin. Asarning kompozitsion tarqoqligi unga shunday materyallarning kiritilganligida emasmikan, degan fikr ham hayoldan o'tadi. Ular «Otajon Xudoys hukurov zamondoshlari xotirasida» degan nomda bir kitobga jamlab

berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Asarning janri haqida gapirganda men uni doston-esse deb atagan bo'lardim. Chunki tasvirlangan aksariyat voqealar real turmushdan olingan esdaliklar, xotiralarga o'xshab ketadi.

Aytilgan juz'iy nuqson qat'iy nazar, «Otajonning oltin sozi» dostoni o'zbek she'riyatida hofiz obrazini yaratishga bag'ishlangan birinchi yirik asar, xonandaga qo'yilgan o'ziga xos adabiy yodgorlik va muallifning katta ijodiy yutug'idir.

«Qo'ng'irotnoma» (2006) dostoni Yangiboy Qo'chqorov she'riyatida yangi ijodiy bosqich bo'ldi. Asar adabiy jamoatchilik, o'quvchilarda yaxshi taassurot qoldirdi. Dastlab Nukusda, Qoraqalpog'iston Yozuvchilari uyishmasida, keyin Toshkentda, O'zbekiston Yozuvchilar uyishmasida dostonning taqdimoti o'tkazilib, asarga ijobiy baho berildi. Uyishma raisi, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov boshchiligida «Qo'ng'irotnoma» taqdimoti qizg'in bo'ldi. Asar muhokamasiga O'zbekistonning eng taniqli shoirlari, olimlari va jurnalistlari qatnashib, doston haqidagi mulohazalari bilan o'rtoqlashdi. Abdulla Oripovning asarning ahamiyati haqidagi quyidagi fikrlari taqdimotga alohida ruh bag'ishladi va u keyinroq matbuotda ham e'lon qilindi: «Yangiboy g'ayrat bilan ijod qilayotgan shoir. Shu bilan birgalikda u istedodli jurnalist va Qoraqalpog'istonda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning faol tashkilotchilaridan biridir. «Qo'ng'irotnoma» dostonida shoir Qoraqalpog'iston xalqi hayotiga oid tarixiy voqealarni, ayni vaqtda, bu qutlug' zaminda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni qalamga olgan».²⁹

Adibning bu fikrlari O'zbekiston xalq shoirlari Jumaniyoz Jabborov, Sirojiddin Sayid, Mahmud Toirlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Erkin Samandar, Azim Suyun, Haydar Muhammad, Tursin Ali va yana bir qator taniqli shoir va yozuvchilar, adabiyotshunos olimlar muhokamada qatnashib, «Qo'ng'irotnoma» yuzasidan ijobiy fikrlarni aytdilar, asarning yutuqlari, uni yanada mukammallashtirish bo'yicha foydali taklif va mulohazalarini bildirdilar. Bu gaplarni axborot tarzida keltirishimizdan asosiy maqsad shuki, haqiqiy istedod bilan yozilgan asarlargina shu xildagi bahoga munosib bo'ladi, eng nufuzli

29 "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 2007-y, 7-aprel

minbarlardan gapiriladi, taqdimoti o'tkazilib, ko'pchilikka tanishtiriladi, targ'ib qilinadi.

Yangiboy Qo'chqorov Qoraqalpog'istonning tarixini yaxshi biladi. Ayniqsa, To'rtko'l, Beruniy, Ellikqal'a tumanlarining tarixini chuqur o'rgangan. Bu tumanlarni faqat o'tmishinigina emas, bugungi hayotiga tegishli ma'lumotlardan ham yaxshi xabardor. Matbuotda bular to'g'risida ko'plab chiqishlar qildi, hatto tumanlarning tarixiga doir alohida-alohida adabiy-publitsistik kitoblar ham yozdi. Har holda, uning shaharlar tarixini badiiy-publitsistik uslubda yoritish tajribasi bor. «Qo'ng'irotnoma» dostoni muallifning hozirga qadar shahar yoki tumanlar tarixi bo'yicha turli janrlardagi ijodiy izlanishlarining mantiqiy davomi, she'riy shakildagi ko'rinishi bo'ldi. Qo'ng'irot haqiqattan ham, «Doston» qilsa arzigulik o'lka. Uning boy tarixi bor. Qo'ng'irotda ulug' shaxslar yashab o'tgan. Dunyoga mashhur noyob asarlar shu yerda yaratilgan. Tarix sahifalariga bitilgan alg'ov-dalg'ovli voqealar deysizmi, muqaddas joy nomlari bo'ladimi, zaminning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimi, barchasi shoirga ilhom berib, qo'liga qalam tutqazgan ko'rindi.

Bu sahro jannatga tatirdi,
Gul bo'lib ko'rindi har tikan.
Yovshanning hidi bor atirdek,
Dunyoda bunday yurt bormikan?!
Men ham bir o'gil bu tuproqqa,
Tutqazib tarixning jomasin –
Ollohim yo'l berdi yozmoqqa
Ulug' yurt Qo'ng'irotnomasin.³⁰

Muayyan shahar tarixi haqida biror badiiy asar yaratish oson emasligini bilasiz. Ayniqsa, she'riy asar, doston bitish qiyin. Muallifdan ko'p mehnat talab qiladi. Tarixiy manbalarni o'rganishni, asar g'oyasini ochishga xizmat qiladigan zarur faktlarni to'plab, ularni did bilan saralashni, asarning ichki mazmuniga, g'oyasiga moslashtirib foydalanishni taqozo etadi. Shoir tasvir obekti uchun

30 Y.Qo'chqorov. Qo'ng'irotnoma. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006-y, 6-bet

tanlangan tarixiy faktlarni shunchaki, quruq bayon qilmasdan, lirik tuyg'ular, ichki hissiyotlar orqali ifodalashi lozim. Shoirga ilhom bergan har bir hayot materiali shoir shaxsiyatidagi ehtiros va kechinmalarga uyg'unlashsagina asar o'quvchining estetik ehtiyojiga javob beradi. Lirik qahramonning fikr salmog'i ustun, ruhiy dunyosi qanchalik boy, tuyg'ular qanchalik jo'shqin va samimiy bo'lsa, she'riy asar shunchalik tasirli, o'qimishli chiqadi. Menimcha «Qo'ng'irotnoma» shunday badiiy xususiyatga ega. Shoir doston mavzusining xarakteriga mos tanlangan har bir tarixiy faktni yoki real voqelik bilan bog'liq biror hodisani xilma-xil tasviriyy vositalar, ehtirosli tuyg'ular bilan shunday talqin qilganki, o'qigan kishining qalbida ham shunday jo'shqin hislar uyg'onadi, lirik qahramon bilan baravar hayajonlanadi, to'lqinlanadi. Dostonning jiddiy yutuqlaridan biri ham, menimcha shunda – tabiiy va samimiy tuyg'ularga boyligida, hayajon bilan o'qilishida.

Qadimiy Qo'ng'irotnoma qal'asi

Necha bor yo'q bo'ldi, bor bo'ldi.

Taratib ilmning shu'lasini

Kengga keng, torga-chi tor bo'ldi.

O'tdi ko'p Xitoy, Hind karvoni

Edilga, Ashtarxon tamonga.

Joy edi Qo'ng'irotnoma xirmoni

Goh bug'doy, gohida somonga...

«Qo'ng'irotnoma»ning yana bir ahamiyatli tamoni bor. Doston vatanga cheksiz mehr tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan, uning har bir misrasida shoirning bu zaminning el-ulusi, odamlari, muqaddas qadamjolari, bir vaqtlar shu tuproqda tug'ilib voyaga yetgan, uning dovrug'ini olamga yoyib, tarixda o'chmas iz qoldirgan ulug' shaxslari haqida mehr bilan yozadi. Ularning ishlarini davom etirib, bugungi Qo'ng'irotnoma har tamonlama yuksalishiga hissa qo'shayotgan hozirgi avlod vakillarini, el hurmatini qozongan yurt farzandlarini nomma-nom tilga oladi va ularning bunyodkorlik ishlarini, san'at va adabiyot, ilm-fan taraqqiyotidagi xizmatlarini ta'rif etadi. Umuman, Qo'ng'irotnoma tarixida muhim o'rni bor biror voqea, fakt yo'qki, u muallif nazaridan chetda qolgan bo'lsin. Shoir

dostonning xulosa qismida Qo'ng'irotning mustaqilik yillaridagi hayotiga nazar tashlaydi, mehnatda buyuk kashfiyotlar qilayotgan xalqning jasoratini ulug'lochi misralar ijod etadi, qoraqalpoq zaminining porloq istiqboliga ulkan ishonch ruhida qatorlar bilan dostonga so'ngi nuqtani qo'yadi.

Dostonning tili sodda va jozibali. Balandparvoz jumladan, vazxonlik asoslanmagan madhiyabozlikdan xoli. Zo'rma-zo'raki, sun'iy to'qilgan misralar yo'q, quyma satrlar. Asar kompozitsion butunligiga biror e'tiroz bildirish qiyin. Fikr oqimi izchil va mantiqli, syujetning puxtaligiga halaqit beradigan ortiqcha tasvir, hatto detal ham uchramaydi. Syujetga asos bo'lgan lavhalar, misralar xuddi zanjirdek o'zaro bog'langan. Bu esa muallifga Qo'ng'irotning uzoq va yaqin o'tmishdagi tarixini, bugungi turmush tarzi bilan bog'liq voqea-hodisalarni tadrijiy asosda badiiy yoritishga imkon bergan. Bu, shubhasiz, shoirning she'riyat bobida mahorati chiniqib borayotganidan darak beradi.

Y.Qo'chqorov she'riyatda qalam tebratishda qanchalik faol va talantli bo'lsa, nasrda ham samarali ijod qilib kelayotgan mohir journalist. Hozirga qadar mazkur janrda uning to'rt kitobi bosildi. «To'rtko'lning tolmas qanoti» (2002) nomli adabiy-publitsistik risolasi muallifning nasrdagi birinchi tajribasi. Kitobda To'rtko'l tumanining yaqin o'tmish va mustaqillik yillaridagi qishloq xo'jaligi to'grisida hikoya qilinadi, tuman iqtisodini ko'tarish uchun mehnat qilgan bir qator rahbarlarning faoliyati haqida faktlar tili bilan so'zlanadi. To'rtko'lning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ro'l o'ynagan omillarni haqqoniy ko'rsatib berishi jihatidan kitobning ahamiyati katta. «Yuz fidoiy qissasi» (2004) kitobi ba'zi xususiyatlari bilan muallifning boshqa asarlaridan farq qiladi. Unda Qoraqalpog'istonning qariyb yarim asrlik taraqqiyotiga hissa qo'shgan va hozirda ham faoliyatini davom ettirayotgan yuzdan ortiq fidoiy rahbarlar haqida ma'lumot beriladi. Yuz rahbar haqida ma'lumot to'plash va uni ixcham badiiy shaklga solib, o'quvchiga yetkazish jarayonini bir tasavvur qilib ko'ring! Yuz rahbar yuz xil xarakterga ega bo'ladi. Har birining yuragiga yo'l topib, dildan suhbatlashish uchun muxbirlik talantidan tashqari insoniy xislat ham zarur. Yangiboyning

odamshavandaligi, har qanday inson bilan ham ko'ngildan gurunglashish uqubi, fikrimcha, bu ishni muvaffaqiyatli uddalashiga zamin bo'lgan.

Y.Qo'chqorovning navbatdagi «Alloma avlodlari» (2005) kitobi Beruniy tumani haqidagi hikoyalardan iborat. Tuman taraqqiyotiga hissa qo'shgan va qo'shayotgan turli soha xodimlarining faoliyati alohida-alohida portret shaklida yoritiladi. Bu kitobning oldingilardan farqi shundaki, ayrim boblarida tuman hayotining ba'zi sohalari umumlashtirib talqin etilgan. «Gulistonga aylangan el», «Alloma nomini ardoqlab», «Bunyodkorlik odimlari», «Sog'liq qadrini bil», «Bo'z yer bahodirlari» va hakozaalarda tuman shuhratini oshirish uchun mehnat qilayotganlar haqida so'z yuritiladi. Kitobning muqovalari va ichiga ilova qilingan tuman fidoiylarining rasmlari esa uning mazmunini boyitishga xizmat etgan. Nazarimda, muallifning «To'rtko'l tarixi» (2006) nomli kattagina kitobi uning yozuvchi-muxbir sifatidagi mahoratini yanada yorqinroq namoyon etdi.

«To'rtko'l tarixi» janr nuqtai nazaridan har xil. Unda hikoyalar, xotiralar, badihalardan, taniqli davlat va jamoat arboblari hamda mashhur san'atkorlarning xotiralaridan keng foydalangan. Tuman tashkil etilgan 1927-yildan to hozirgi kunga qadar uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotidagi muhim hodisalar, yigirmanchi yilning notinch voqealari, qatag'on davrining dahshatlari, ikkinchi jahon urushi yillardagi To'rtkolliklarning mardligi va jasorati kitobda xronologik tarzda, badiiy-publitsistik uslubda yaxshi yoritilgan.

Y.Qo'chqoro'vning nasriy kitoblarini ham bir sidra nazardan o'tkazdik va ko'rdikki, muallif respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-adabiy hayotida qo'lga kiritilgan har bir yangilikka, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi buyuk o'zgarishlarga munosabat bilirib kelayotgan mohir journalist. Tahlilga tortilmagan boshqa nasriy asarlari ham uning muxbirlik faoliyatining yorqin sahifalari deyishga to'la asos beradi. Unga berilgan «Qoraqalpog'istonda respublikasida xizmat ko'rsatgan journalist» faxriy unvonlari bu aytilganlarning amaliy tasdig'idir.

XULOSA

Xalqlar o'rtasidagi do'stlikni ta'minlashda adabiyotlarning vositachilik ro'li alohida. «Adabiyotlar do'stligi bu xalqlar do'stligidir» degan she'r bekorga aytilmagan. Shuning uchun ham jamiyatimizda bu masalaga alohida e'tibor beriladi, bu jarayonni har tamonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi. Tadbirlar ishlab chiqilib hayotyga tadbiriq etiladi.

Qoraqalpog'istonda turli millat vakillari yashab, mehnat qilishadi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ma'rifiy soxaning deyarli barchasida turli millat vakillari do'st birodar bo'lib mehnat qilishadi. Bu jarayon shu mintaqada yashayotgan xalqlarning adabiyotida ham o'z aksini topmoqda. Qoraqalpog'iston hududida qoraqalpoq xalqlari bilan o'zbek xalqlari qadimdan birga yashab, mehnat qilib kelishayapti. Ularning adabiyotlari ham bir-birlari bilan chatishib, uyg'unlashib ketgan. Qoraqalpog'istonda yashab o'zbek tilida qalam tebratib kelayotgan shoir va yozuvchilarning katta bir otryadi bor. Ular qoraqalpoq adiblari bilan yonmayon, hamkor va hamnafas ijod qilib kelishayapti. Qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyotiga birga hissa qo'shib kelmoqda. Bir so'z bilan aytganda, Qoraqalpog'istonda yashab o'zbek tilida asarlar yozib kelayotgan shoir va yozuvchilar qoraqalpoq adabiyotining bir tarmog'i sifatida rivojlanayapti.

Qoraqalpog'istonda yashab o'zbek tilida ijod qilib kelayotgan shoir va yozuvchilarning o'ziga xos xususiyatlari bor. Ular o'zbekistonning boshqa hududlaridagi o'zbek ijodkorlaridan farq qiladi. Bu o'ziga xoslik avvalo, ularning asarlariga mavzu tanlashdan tortib, uni aks ettirish usullari, kolorit yaratish mahoratida o'z aksini topgan. Biz ushbu magistrlik dissertatsiyamizda bir qator ijodkorlar misolida bu o'zgachalikni ko'rsatib berishga harakat qildik. Jumladan, G.Matyoyubova, G.Rahimova, N.Matyoyubova, Y.Qo'chqorov ijodi misolida qoraqalpoq zaminida yashab, qalam tebratishdagi o'ziga xos jixatlarni ko'rsatishga intildik. Ularning har birining muayyan asarlari misolida mavzuning bu qirralarini ochib berishga harakat qildik.

Magistrlik dissertatsiyamizning mavzu bo'yicha taxlillaridan taxminan quyidagi xulosalarga keldik:

A) Qoraqalpog‘istonda yashab o‘zbek tilida qalam tebratayotgan har bir ijodkor, birinchi navbatda, mavzuni shu mintaqadan tanlashga, uning tabiati deysizmi, yoki adabiyoti, yo madaniyati bo‘ladimi, iqtisodiy turmushidagi o‘zgarishlar bo‘ladimi o‘lka hayotidan tanlaydi va imkon qadar haqqoniy tasvirlab berishga harakat qiladi;

B) Har bir ijodkor qoraqalpoq mavzusidan mavzu tanlar ekan, unda albatta qoraqalpoq milliy koloritini yaratishga intiladi. Qoraqalpoq millatiga xos urf-odatlarini, psixologik kechinmalarni berishni nazarda tutadi. Biz bu holatni G.Matyoqubova she‘rlari va dostonlari taxlilida, shoiraning publitsistik maqolalarida ko‘rdik. Yangiboy Qo‘chqorovning qator publitsistik chiqishlari, kitoblarida ham bu masala yaxshi yoritilgan. Ularni o‘qisangiz har birida qoraqalpoq o‘lkasi, odamlari tabiatiga xos xususiyatlarni his qilib turasiz.

D) Qoraqalpog‘istonda yashab o‘zbek tilida qalam tebratib kelayotgan deyarli barcha ijodkorlar Qoraqalpog‘istonning ekologik muhitini, xususan Orol muammolarini qalamga olgan. Va bu mavzuni O‘zbekistonning boshqa biror hududida qalam tebratayotgan o‘zbek ijodkorlaridan tamoman o‘ziga xos shakl va mazmunda talqin qiladi. Bu mavzuda G.Rahimova, N.Matyoqubovaning turkum asarlari borki, ularning har biri chinakam mahalliy kolorit ruxi bilan sug‘orilgan.

E) Qoraqalpog‘istonda yashab o‘zbek tilida qalam tebratib kelayotgan shoir va yozuvchilarning yana bir o‘ziga xosligi bor. Ular qoraqalpoq tilini o‘z ona tilidek yaxshi biladi. Bu imkoniyatlarga qoraqalpoq adabiyotining namunalarini qoraqalpoq tilida o‘qish imkoniyatini beradi. Bu esa qoraqalpoq adabiyotini o‘zbek tiliga tarjima qilish uchun yaxshi imkoniyat tug‘diradi. Ularning ko‘pchiligi qoraqalpoq ijodkorlarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda faol qatnashayapdiki, bu har tamonlama qo‘llab quvvatlasa arziydigan fakt. Bazi ijodkorlar (G.Matyoqubova, A.Oqnazarov, Y.Qo‘chqorovlar) ham o‘zbek ham qoraqalpoq tillarida yozish imkoniyatiga egaki, bu holat harqancha maqtovga loyiq.

Magistrlik dissertatsiyamizning umumiy taxlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, Qoraqalpog‘istonda yashab o‘zbek tilida ijod qilayotgan shoirlar va

yozuvchilar o'z imkoniyatlari doirasida bugungi qoraqalpoq adabiyotiga imkon qadar xissa qo'shishga, uni yangi-yangi asarlar bilan boyitib borishga harakat qilmoqda. Bu ijodkorlarning yana bir afzalligi, ijodining o'ziga xosligi shundan iboratki, ularning adabiyotning turli janrlarida yaratgan asarlari faqat qoraqalpoq adabiyoti emas, ayni paytda o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ham o'ziga xos hissa bo'lib qo'shilayotganini takidlash zarur deb hisoblaymiz. Xususan, G.Matyoqubova, A.Oqnazarov, Y.Qo'chqorov, G.Rahimovalarning asarlari, kitoblari Toshkentning nufuzli nashryotlarida bosilmoqda, bu ularning umum o'zbek adabiyoti rivojida ham o'rni borligini ko'rsatadi.

Yana bir xulosaviy fikrimiz shundan iboratki, magistrlik dissertatsiyamizda tortilgan shoirlar ijodi, kelajakda kengroq doirada o'rganilishi zarur. Faqat biz tilga olgan ijodkorlar emas, boshqa shoir va yozuvchilar ijodi ham qamrab olinib, kengroq ko'lamda ilmiy ishlar yozilsa, kitoblar nashr etilsa, qoraqalpoq adabiyotining bugungi qiyofasi, uning baynalminal xarakteri yanada yorqin namoyon bo'ladi. Bu mavzuni o'rganishga qoraqalpoq adabiyotshunosligi ham ko'proq diqqat qilsa, nur ustiga nur bo'lishiga shubha yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. \Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poysevari. –T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., 1997.

Ijtimoiy – siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni, 1998.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi «Xalq so'zi» gazetasi. 2010 yil 13 noyabr, № 220 (5135).
7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi «Xalq so'zi» gazetasi. 2010 yil 13 noyabr, № 220 (5135).
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2012.
9. Karimov I. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2001.

Badiiy adabiyotlar, to'plam, risola va maqolalar:

1. Abduvohid Xayit. «Go'zal so'z aytish istagi», «Yosh kuch» №4. 1995-yil.
2. Abdulla Qahhor. «Yoshlar bilan suhbat». Toshkent, 1968-y, 36-bet.
3. Bektemir Pirnafas o'g'li «Vatan haqida qo'shiq»
4. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 2007-y, 7-aprel.
5. Matyoqubova G. «Muhabbat yurti». 2002, 70-b.
6. Matyoqubova G. Muhabbat yurti, «Xalqim ulug' yo'lga chiqdi» bobi, 2002-y, 72-bet.
7. Matyoqubova G. «Muhabbat yurti», 2002-y, 72-bet.
8. Matyoqubova G. «Muhabbat yurti», 2002-y, 76-bet.
9. Matyoqubova G. Jayxun yoqasida o'sgan boyterak. «Amu tongi» gazetasi 7-aprel, 1995-yil.
10. Matyoqubova G. Muhabbat yurti. 2002-yil, 95-bet.
11. Matyoqubova G. Muhabbat yurti. 2002-yil, «Uzoq va yaqin yillar» I-bob, 3-bet.
12. Matyoqubova G. Muhabbat yurti. 2002-yil, «Eng aziz me'ros» bobi, 19-bet.
13. Matyoqubova G. Muhabbat yurti. 2002-yil, «Yurt baxtini aytishga bordim» bobi, 23-24-25-betlar.
14. Matyoqubova G. Muhabbat yurti. 2002-yil, «Yurt baxtini aytishga bordim» bobi, 33-bet
15. Matyoqubova G. «Jayxun yoqasida o'sgan boyterak» Amu tonggi 1995-yil 1-aprel.
16. Quramboev K. Adabiy ta'sirdan ijodiy o'ziga xoslikka. Nukus. 2007-y
17. Quramboev K. Adabiy jarayon ijod mas'uliyati, Adabiy aloqalar. «Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi». Toshkent – 2009-yil.
18. Baxriyev K. «Vatan haqida o'ylar»
19. Axmad M. «Muqaddas qayg'u», «Amu tongi» 20-may, 1994-yil.
20. Bo'ranov M. Sheriyat sayqali so'z. «Amu tongi» gazetasi 1993-y 3-aprel.
21. Safarov M. «Musiqalarimizning dolzarb mummolari»
22. Qodirov P. «Orol madad kutmoqda».

23. Raxidov R. M.Xoshimova. She'riyat shoir yuragi.
24. Sodulla Hakim. «Vatanparvarlik, fidoiylilik zamoni keldi». «Marifat» davra suxbati. 1993 yil 29-dekabr.
25. Qo'chqorov Y. Asrlarning armoni. Toshkent, 2002. 4-bet.
26. Qo'chqorov Y. Otajonning so'zi. Toshkent, 2004. 35-bet.
27. Qo'chqorov Y. Qo'ng'irotnoma. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2006-y, 6-bet.
28. Zulfiya. «Gulistonning bo'stoni». «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasidan.
29. Zulfiya «Gulistonning Bo'stoni». «O'zbek adabiyoti va san'ati».

Internet saytlari:

1. www.ziyouz.com
2. www.kutubxona.com
3. www.ijod.uz
4. www.adabiyot.uz
5. www.pdfactory.com